

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika fakulteti

BTSTI ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Sultonova Dilafro'zning

“Boshlang'ich sinf sinfdan tashqari o'qish darslarida

xalq og'zaki ijodidan foydalanish”

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: p.f.n. T. G'aniyev

Andijon - 2011

Mundarija:

Kirish	3
I bob. Sinfdan tashqari o'qish darslarining o'quvchi ma'naviy kamolotidagi roli	7
1-§. Sinfdan tashqari o'qish o'quvchilar faolligini oshiruvchi vosita sifatida	9
2-§. Sinfdan tashqari ishlar sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning yordamchi shakli sifatida	20
II bob. Boshlang'ich sinf sinfdan tashqari o'qish darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish	23
1-§. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari mazmuni	23
2-§. Milliy g'oya va xalq og'zaki ijodi — mushtarak hodisa ...	30
3-§. Sinfdan tashqari o'qish darslarida xalq og'zaki ijodini o'rganish	36
3.1. Sinfdan tashqari o'qish darslarida ertaklardan foydalanish	40
3.2. Sinfdan tashqari o'qish darslarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish	45
3.3. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida xalq maqollari ustida ishlash	48
4-§. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini teatrlashtirilgan holda tashkil qilish	50
Xulosa	59
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	61

K i r i s h

Muhtaram Yurtboshimiz I. A. Karimov “T a f a k k u r” jurnali muxbiri bilan bo’lgan suhbatda shunday degan edi: “Aslida ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotning chegarasi va poyoni yo’q, toki hayot davom etar ekan, ta’lim ham, tarbiya ham zamon o’rtaga qo’yayotgan yangi-yangi talablarga ko’ra muttasil ravishda o’zgarib yangilanib boraveradi. Faqat biz bu sohadagi dastlabki qadamlarimizni to’g’ri qo’ya olsak, poydevorni mustahkam qilib barpo etsak, men shunga aminmanki, bugungi avlodning samarasidan bahramand bo’lajak kelgusi avlod bizning qilgan ishlarimizni ehtirom va minnatdorlik tuyg’usi bilan eslaydi”.¹ Darhaqiqat, bugungi kunda respublikamizda ta’lim va tarbiya jarayonida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. “Biz kelajagi yorqin, istiqboli porloq bir buyuk davlat qurmoqdamiz. Mustaqilligimiz bosib o’tgan davrga nazar tashlar ekanmiz, ushbu qisqagina davr, tarixiy fursat hayotimizga nechog’lik o’zgarishlar, ongimiz va qalbimizda biz orzu qilgan mislsiz yangilanishlar yasab ulgurganini his etamiz”.² Darhaqiqat, O’zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga yigirma yil bo’lgan bo’lsa, davlatimiz bu davr oralig’ida turli jabhalarda ulkan o’zgarishlar, tub islohotlar olib borib, o’ziga xos yuksak natijalarga erishdi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari yuz yillarga tatigulik chuqur mazmun-mohiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlab o’tganidek, “Barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog’lom qilib o’stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko’rish, dunyoda hech kimdan kam bo’lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi”.³ Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy sohalarda amalga oshirilayotgan jarayonlar, yangiliklar ana shu niyatlarimizning pirovad natijasidir. O’zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida olib borayotgan odilona siyosati tufayli mavqei mustahkamlanib, nufuzi ortib bormoqda. Bu Respublikamizda yetishib chiqayotgan malakali kadrlar bilan ham bog’liqdir. Jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tub islohotlar ta’lim sohasini ham yangitdan isloh qilishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ydi. Mamlakatimizda ta’limning o’ziga xos modeli yaratildi, davlatimiz taraqqiyotida ta’lim ustuvor sohaga aylandi.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni, bilimlarni o’rganish, o’zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali, 1998-yil, 2-son, 18-bet.

² Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. “Sharq”, 1999, 43-bet.

³ Karimov I. A. O’zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo’lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. “Xalq so’zi” gazetasi, 2009 -yil, 6 -dekabr soni.

tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan-bir yo'li ta'lim tizimini tinmay takomillashtirib borish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi.

““Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda ta'limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta'lim va tarbiya tizimining uzluksizligi, ilmiyligi va dunyoviyliigi, ta'limda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarning ustuvorligi, davlat ta'lim standartlari doirasida hammaning bilim olishi uchun imkoniyat yaratilishi bilan belgilanishi bejiz emas”.¹

Yuqorida aytib o'tilganidek, respublikamizda ta'lim va tarbiya jarayonida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotning asosi esa yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish va shu asosda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning ongi, dunyoqarashini o'stirishdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi, yuqorida ta'kidlanganiday, bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani sifatida emas,

balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qarash lozimligini alohida ta'kidlash joizdir. Boshlang'ich ta'lim davlat qonunini hayotga tatbiq etishda muhim bosqich hisoblanadi. O'quvchilarga ona tili darslarida tilning qonun-qoidalari haqida bilimlar berish, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish bilan birga, ularni ona tilidan sinfdan tashqari ishlarga jalb qilish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari ishlar darsdan tashqari mashg'ulotlar hisoblanib, bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishlari, orzu-intilishlari, ulug' kunlar, bayramlar, sanalarga munosabati asosida o'tkaziladi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi, fikrlar hamohangligini ta'minlaydi, mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, hozirjavoblikka undaydi. Hamda hayotda, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan befarq bo'lmaslikka chorlaydi.

Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining **dolzarbligi** ham shundaki, o'quvchilarni nafaqat darsda, balki darsdan tashqari paytlarda ham tilimizga hamda xalq og'zaki ijodiga bo'lgan hurmatini, mehr-muhabbatini, uni o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularni

¹ Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. Toshkent. “Ta'lim taraqqiyoti” jurnali, 1999-yil, 7-maxsus son, 71-bet.

jamoatchilik asosida mustaqil ishlashga o'rgatish bugungi kunda boshlang'ich ta'lim oldida turgan asosiy masalalardan biridir.

Ishning **ilmiy yangiligi** boshlang'ich ta'limda ona tilidan sinfdan tashqari o'qish darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish bo'yicha fikrlar tizimini yaratishdir.

Ishning **nazariy va amaliy ahamiyati** shuki, tavsiya etilgan usullar amaliyotda muntazam qo'llansa, o'quvchilarning ijodkorlik va mustaqil fikrlash doirasi kengayadi, ularda ishchanlik, hozirjavoblik, voqea-hodisalarga tezkorlik va zukkolik ruhida yondashish kabi fazilatlar kamol topadi.

Biz mavzuni yoritish jarayonida o'z oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

1. Maktabda sinfdan tashqari o'qish va mashg'ulotlar, ommaviy tadbirlar amaliyoti bilan yaqindan tanishish.
2. Sinfdan tashqari o'qishda xalq og'zaki ijodifan foydalanish darajasini belgilash.
3. Sinfdan tashqari o'qishlarni tashkil qilish va o'tkazish usullarini belgilash, ularni tajribadan o'tkazish.
4. O'quvchilarning qiziqishi va intilishlarini hisobga olgan holda tadbirlar o'tkazishni rejalashtirish va o'quvchilarni tadbirlarga jalb etish.
5. Sinfdan tashqari o'qishlarni o'tkazish jarayonida o'quvchilarning faollik darajasini kuzatib va belgilab borish.
6. Mavzu bo'yicha fikrlarni to'plab sistemalashtirish va xulosalar chiqarish.
7. O'tkazilgan tajribalar natijalarini tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishimiz ob'yekti – Anjijon viloyati, Shahrixon shahridagi 4 -umumta'lim maktabi.

Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini yoritish jarayonida boshlang'ich sinflar ona tilidan sinfdan tashqari ishlar, tadbirlar bilan yaqindan tanishdik, ilmiy-uslubiy adabiyotlar, maqolalarga murojaat qildik, bir qancha ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ish tajribalari, fikr-mulohazalariga tayandik.

Bitiruv malakaviy ishimiz **k i r i sh**, 2 ta bob, 6 ta ta paragraf, **x u l o s a** qismlaridan hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishimizning umumiy hajmi 61sahifani tashkil qiladi.

I bob. Sinfdan tashqari o'qish darslarining o'quvchi ma'naviy kamolotidagi roli

Ma'lumki, o'quvchi shaxsini o'rganish, uning kamolotiga alohida mas'uliyat bilan yondashish har bir o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi va burchidir. Ushbu vazifani bajarish uchun esa o'qituvchidan ham nazariy, ham amaliy jihatdan pedagogik-psixologik bilim va tajribalarga ega bo'lish, o'quvchi shaxsi ruhiyatidagi barcha imkoniyatlar va o'zgarishlarni tahlil qila olish, ularni yanada rivojlantirish usullarini izlab topish va tarbiya jarayonida ishtirok etayotgan har bir bola shaxsining temperamenti, xarakteri, turli ijobiy yoki salbiy xususiyatlari hamda iqtidoriga mos ravishda ish tuta olishni talab qiladi.

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, umrboqiy an'analarimizga, qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarishlariga imkoniyatlar yaratish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh omilidir. Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab hayot jarayonida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot kabilar bevosita ta'sir qiladi. Umumta'lim maktabi o'quvchilarni umrboqiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda dars bilan bir qatorda, sinfdan va maktabdan tashqari o'tkazilayotgan tadbirlar ham katta ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari o'qish ishlarining samaradorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishdir. Zero, bunda o'quvchilarning qiziqishlari, istaklari, xohishlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Hozir butun respublikamiz xalqi milliy g'oya asosida o'ziga xos shijoat, baland ruh bilan mehnat qilmoqda, yashamoqda, ta'lim olmoqda. Inson ma'lum, muayyan mafkuraviy yo'nalishda fikrlaydi. U ana shu fikri – dunyoqarashi va saviyasi bilan jamiyatga yo foyda keltiradi, yo zarar keltiradi.

Bugungi kunda butun yer yuzidagi tinchliksevar kishilarning osoyishta hayotiga xavf solayotgan ba'zi bir diniy-ekstremistik oqimlar bunga misol bo'la oladi. Demak, “mafкура har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan”.¹

Bugungi kunda milliy g'oya mafkurasiga zid bo'lgan yot mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun “odamlarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarimizning

¹ Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasiga – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent. “O'zbekiston”, 2000, 5-bet.

muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularning “men – o‘zbek farzandiman” deb g‘urur va iftixor bilan yashashiga erishish...”¹ maktbning ham asosiy vazifasiga kiradi. Bunda, albatta, badiiy asar ta'siri, badiiy asar mazmuni asosida ish ko‘rish katta samara beradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar badiiy asar namunalari bilan o‘qish darslarida tanishib boradilar.

O‘quvchilarni boshlang‘ich sinflardan boshlab har tomonlama yetuk inson sifatida tarbiyalash o‘qish darslarining asosiy vazifasidir. Ma‘naviy yetuklik keng ma‘noli tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, sofdillik, kamtarlik, saxiylik, adolatparvarlik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Bunday chinakam insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtira olgan kishilar ma‘naviy yetuk kishilardir. Bu toifadagi kishilar butun qobiliyati, bilimi, kuch-g‘ayratini umumxalq ishiga bag‘ishlaydilar. Bunday insonlar o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Ularni to‘g‘ri tashkil etilgan tarbiyaviy vositalar shakllantiradi. O‘qish darslari va sinfdan tashqari o‘qish darslari hamda sinfdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar esa ana shu ta‘lim vositalarining asosiysidir. Bu jarayon belgilangan metodik talablar asosida to‘g‘ri tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1-§. Sinfdan tashqari o‘qish o‘quvchilar faolligini oshiruvchi vosita sifatida

Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta‘limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta‘lim va tarbiya tizimining uzluksizligi, ilmiyligi va dunyoviyligi, ta‘limda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarning ustuvorligi, davlat ta‘lim standartlari doirasida hammaning bilim olishi uchun imkoniyat yaratilishi bilan belgilanishi bejjiz emasligi alohida ta‘kidlangan. Boshlang‘ich ta‘lim davlat qonunini hayotga tatbiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili asosiy o‘rin egallaydi. Ona tili dsturi quyidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi:

1. Savod o‘rgatish, sinfdan tashqari o‘qish va nutq o‘stirish.
2. Sinfdan, sinfdan tashqari o‘qish va nutq o‘stirish.
3. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o‘stirish.²

Sinfdan tashqari o‘qish, dasturning mazmuniga ko‘ra, ta‘limning hap бap bosqichida ikki asosiy bo‘limga ajratiladi. Birinchi bosqichda o‘qish doirasi, ya‘ni o‘qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o‘qish bilan tanishtirish yuzasidan o‘quvchilarga ko‘rsatma beriladi. Ikkinchi bosqichida shu o‘quv materiallari asosida bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi.

¹ O‘sha asar, 11-bet.

² Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. Boshlang‘ich ta‘lim. Toshkent. “Ta‘lim taraqqiyoti” jurnali, 1999-yil, 7-maxsus son, 72-bet.

O'quvchilar kitob va ularning mualliflari haqidagi bilimlarni bevosita amaliy faoliyatlari, ya'ni kitob ustida ishlash jarayonida egallaydilar.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsalar, keyinroq yetakchi bolalar yozuvchilarining asarlari bilan tanishadilar. So'ngra bolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab o'qishga o'tadilar.

1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar bolalarning ona-Vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvur-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi.

2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining topshirig'i va yordami asosida mustaqil o'qishga o'tadilar.

3- va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti yorqin tasvirlangan, ularning ma'naviy-axloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. Jumladan, o'quv materialini sifati sarguzashtlarga boy asarlar, ona-tabiat sahovati, kishilarning o'zaro mehr-muhabbati tarannum etilgan, buyuk ajdodlarimizning olamshumul faoliyatlari ko'rsatilgan axloqiy-ma'rifiy hikoyalar, tarixiy badiiy asarlar, istiqloq to'g'risidagi ilmiy-ommabop maqolalar bilan tanishishga ahamiyat berilgan.

O'quvchilarning bolalar kitobi, gazetalar va jurnallari bilan mustaqil ishlashlari, shu bilan birga, sinf va maktab kutubxonasi bilan hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi sinf o'quvchilarining kitob bilan mustaqil ishlash faoliyatlarini shakllantirish uchun sinf kutubxonasida hafta davomida "Kitoblar ko'rgazmasi" tashkil etib boriladi.

Ikkinchi sinfda esa "Kitoblar ko'rgazmasi" mavzular asosida tashkil etiladi. Masalan, Vatan, istiqloq, mustaqillik, tabiat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, buyuk ajdodlarimizning qahramonona, shijoatkor jasoratlari kabi mavzular shular jumlasidandir. Bunday kitob ko'rgazmalari va tavsiya etilayotgan kitoblar ro'yxati o'quvchilar saviyalariga mos asarlarni tanlab o'qishlariga yordam berishi kerak.

Uchinchi sinf "Kitoblar ko'rgazmasi"da kitoblar mualliflariga qarab tartiblanadi. Masalan, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, G'afur G'ulom, Zafar Diyor, Anvar Obidjon, Xudoyberdi To'xtaboyev kabi. Shuningdek, tavsiya etilayotgan kitoblar ro'yxati va kitob ustida mustaqil ishlash uchun mavzular bo'yicha kartotekalar mavjud bo'ladi.

To'rtinchi sinfda sinf va maktab kutubxonasidagi mavjud badiiy, tarixiy, ilmiy-ommabop kitoblar, bolalar gazetasi va jurnalida bosilgan, o'quvchilar o'qishi uchun tavsiya etilgan

maqolalarning “Nimani o’qishim kerak?” sarlavhali katalogini (mavzusi yoki muallifi bir xil kitoblar va maqolalarning ma’lum tartibda tuzilgan ro’yxati) tuzish tavsiya etiladi.

Ikkinchi sinfdan boshlab o’quvchilarni shahar va tuman kutubxonalari bilan tanishtirish, sayohatlar uyushtirish tavsiya etiladi. 3-, 4-sinflarda kitobxon o’quvchilarni tarbiyalashga, ularning kutubxonalardan mustaqil foydalanishlariga yordam beradigan adabiy ertaliklar, badiiy o’qish, ifodali o’qish kabi tadbirlarni o’tkazish maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan va sinfdan tashqari o’qish boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan barcha predmet dasturlarining bo’limlari bilan bevosita bog’liqdir.

Maktab bolani o’qish malakasi bilan shug’ullanadi. Shu bilan birga, kitobni mustaqil o’qiy oladigan, uni tushunadigan, muntazam o’qib borishni talab qiladigan, ma’lum bir mavzuga doir kitoblarni tanlay oladigan, faqat qiziqarli kitoblarnigina emas, balki gazeta va jurnallarni ham o’qiy oladigan faol kitobxonni tarbiyalashi lozim.

Sinfdan tashqari o’qish tarbiyaning ajoyib quroli sifatida xizmat qiladi, o’qishga, ko’p narsani bilishga havasini orttiradi.

“Boshlang’ich ta’lim” dasturida sinfdan tashqari o’qish sohasida bolalar egallashi zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalar belgilab berilgan. Bular bolalar yozuvchilarining mashhur asarlarini bilish, mustaqil o’qigan kitoblarini to’g’ri baholay olish, kerakli materialni tanlay bilish, o’qish kundaligi yurita olish kabilardir.

Sinfdan tashqari o’qish dasturi maktab va kutubxona tomonidan tashkil etilgan sinfdan tashqari mashg’ulotlar, bolalar bilan individual (yakkama-yakka) tarzda ishlash orqali bajariladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar qiziquvchanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular o’quvchilar hayoti haqida, sayohatlar haqida, hayvonlar va jonivorlar, umuman, tabiat haqida, mashinalar to’g’risida o’qishni, ayniqsa, ertak eshitishni sevadilar. O’quvchilar qo’rqmas sayyohlar, tekshiruvchilar, qahramon bolalar haqidagi kitoblarni yuqori baholaydilar.

Mamlakatimizda bolalar adabiyoti adabiyotning mustaqil sohasi deb qaraladi. Po’lat Mo’min, Xudoyberdi To’xtaboyev, Quddus Muhammadiy, Zafar Diyor, Qudrat Hikmat, Nosir Fozilov, Yayra Sa’dullayeva, Shukur Sa’dulla, Muhammad Ali, Rauf Tolib kabi yozuvchi va shoirlarimiz bolalar uchun ajoyib asarlar yaratganlar.

Sinfdan tashqari o’qish uchun bolalarga atab maxsus yozilmagan, ammo ularning saviyasiga mos bo’lgan asarlar ham tavsiya etiladi. Mirmuhsin, Rahmat Fayziy, Mirzakalon Ismoilii, Husayn Shams kabi yozuvchilarning asarlari shular jumlasidandir.

Ona tili o’qitish metodikasining vazifalaridan biri sinfdan tashqari o’qish uchun kitoblar tanlash va bolalar yoshiga, saviyasiga qarab tavsiya qilishdir. Mavjud dasturda sinfdan tashqari o’qish uchun tavsiya etiladigan kitoblar ro’yxati berilmagan. Bunday ro’yxatni o’qituvchining o’zi dastur talablari asosida tuzishi mumkin.

Sinfдан tashqari o'qishning asosiy vazifalari:

- O'quvchilarning o'qish va nutq o'stirishdan olgan bilim va hosil qilgan malakalarini mustahkamlash, takomillashtirish va ularni yuksak axloqiy ruhda tarbiyalash;
- O'quvchilarning barcha fanlardan sinfda olgan bilimlarini kengaytirish;
- O'quvchilarda kutubxonadan kerakli kitobni, kitobdan esa kerakli materialni topishga o'rgatish;
- O'quvchilarni kitobga va bilim olishga havasini tarbiyalash;
- O'quvchilarning kitob bilan mustaqil ishlash malakasini takomillashtirish.

Sinfдан tashqari o'qishni uyushtirish tamoyillari:

- O'quvchilarning mustaqil o'qishiga rahbarlik qilishda ularda kitobga havas, o'qishga muhabbatga asoslanish tamoyili.
- O'qiladigan kitob bolaning yoshi, bilim saviyasiga mos va qiziqarli bo'lish tamoyili.
- Kitob o'qish gigiyenasi va madaniyatiga qat'iy amal qilish tamoyili.
- Kitob tanlashga o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish tamoyili.

Sinfдан tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagilarga rioya qilinadi:

Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi. Bunda quyidagi malakalar hisobga olinadi:

- 1) o'zbek xalqining mustaqillikka erishishi;
 - 2) vatanparvarlik mavzusi;
 - 3) xalqlar do'stligi, o'zaro hamkorlik g'oyasi;
 - 4) o'zbek xalqining qahramonona mehnati;
 - 5) o'zbek xalqining bunyodkorlik faoliyati;
 - 6) axloqiy masalalar;
 - 7) ekologik muammolar.
1. O'qish uchun tavsiya etiladigan kitoblar janri va mavzusi jihatidan xilma-xil (nasr va she'r, badiiy va ilmiy-ommabop adabiyot, hozirgi kun va o'tmish haqidagi kitoblar, mumtoz shoirlar va zamonaviy adabiyot vakillarining asarlari, xalq og'zaki ijodi namunalari – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, tez aytishlar) bo'lishi kerak.
 2. O'qish uchun tavsiya etiladigan kitoblar hajm jihatidan va mavzusi jihatidan o'quvchilarning yoshi va saviyasiga mos bo'lishi zarur.

Sinfdan tashqari o'qish sinfda o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish sinfdan tashqari o'qish uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'qigan asarni tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. Sinfdan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli, o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish – o'quvchini hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslari hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining har birida quyidagi ish turlarining amalga oshishiga erishish kerak:

- ◀ O'quvchilarning faolligini oshirish.
- ◀ Bolalar uyda o'qigan kitoblar, asarlarni hisobga olib borish.
- ◀ Yangi kitoblarni tavsiya qilib borish.
- ◀ Har bir janrga xos asarlarni o'qishga ulgurish.
- ◀ O'quvchilar o'qigan asarlarning tahlilini o'tkazish.
- ◀ Har bir darsda ma'lum bir kitobxonlik ko'nikmasini hosil qilish.
- ◀ O'quvchilar lug'atini boyitib, og'zaki nutqini o'stirib borish.
- ◀ Turli qiziqarli mashqlardan foydalanish.

Sinfdan tashqari o'qish darsining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, sinfda o'qish darslaridan keskin farq qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari erkin darslar hisoblanadi. Bunday maxsus darslarda bolalarning kitobga qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodi rivojlanadi, faol kitobxonlar uchun zarur ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi. Har bir dars o'qituvchi bilan o'quvchining ijodi hisoblanadi. Darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, o'qituvchi o'z sinfida shunchalik katta muvaffaqiyatga erishadi. Shularga qaramay, sinfdan tashqari o'qish darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun ma'lum talablarga bo'ysunadi.

Bolalar o'qigan kitoblar har bir darsda hisobga olinadi. Ular o'qigan yoki o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'qigan kitoblari haqida qisqacha gapirib beradilar. O'qituvchi o'zaro darsda fikr almashish holatini yaratadi, darsdan tashqari vaqtda ham fikr almashish davom etishi mumkin.

Yangi kitoblar har bir darsda tavsiya qilinadi. Tavsiya shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv yoki kitobni ko'rsatib, to'g'ridan-to'g'ri tavsiya qilish tarzida bo'lishi ham mumkin.

O'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasm ko'rsatish, diapozitiv yoki film parchasini namoyish qilishdan iborat.

Har bir darsda o'quvchilar hikoya, ertak, she'r o'qiydilar, hajmi kichik asarni yaxlit tarzda, hajmi katta asar bo'lsa, ikki-uch soatlik dars davomida o'qiydilar. Sinfdagi barcha o'quvchilar o'qigan kitobidan biror parchani o'qib beradilar. Ko'proq ovoz chiqarib o'qiydilar. Bundan tashqari, darsda ichdan o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

O'qilgan asar yuzasidan suhbat, ya'ni o'qituvchi savoliga javob berish, erkin hikoyalab tahlil qilish usulidan har bir darsda foydalanish zarur va bu narsa maqsadga muvofiqdir. Erkin hikoya qilish uchun savol umumiy tarzda beriladi: "Senga nimalar juda yoqdi?", "Bu kitob haqida sen nimalarni ayta olasan?", "Qaysi qahramon senga yoqdi?", "Bu qahramonni nima uchun yoqtirib qolding?" kabi savollar berilishi bilan o'quvchilarning kitob haqidagi fikrlarini oydinlashtirib olish mumkin bo'ladi. Tahlil jarayonida bolalarni milliy axloq ruhida, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalashga tegishli o'rinlar yoki epizodlarga alohida ahamiyat berish zarur hisoblanadi.

Har bir darsda ma'lum bir yangi kitobxonlik ko'nikmasi hosil qilinadi. Muallif haqida ma'lumot topish, kitob nomiga qarab u nima haqida ekanini bilish, ko'rgazma hosil qilish, kitob haqida taqriz yozish yoki kitoblik kundaligini yuritish kabilar kitobxonlik ko'nikmasining asosiy shartlaridir.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida qayta hikoyalash, lug'at ishi, suhbat usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Lug'at ishi bunday darslarda yordamchi rol o'ynaydi: ayrim tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar tushuntiriladi, o'quvchilar diqqati esda saqlab qolish lozim bo'lgan aniq, qulay nutq obortlariga qaratiladi. Barcha qiyin so'zlarni tushuntirish imkoni bo'lmagani uchun bolalar tegishli bet tagida berilgan ayrim so'zlar izohini o'qishga o'rgatiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida qayta hikoya qilishning qisqartirib qayta hikoyalash, o'quvchiga yoqqan o'rinni qayta hikoyalash, tanlab qayta hikoyalash turlaridan foydalaniladi. Sinfdan tashqari o'qish qayta hikoya qilishning ijodiy shakllari bo'lgan o'qilganlarga so'z bilan yoki grafik rasm chizish, applikatsiya, adabiy-musiqaviy kompozitsiya, rasmlar, da'filmlardan foydalanishga sharoit yaratadi. O'qilganlar asosida insho, gazetaga maqola yozish kabi ijodiy ishlardan foydalanish mumkin.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida suhbat usullaridan o'qilgan kitobni muhokama qilishda ham, yangi kitob tavsiya qilishda ham qo'llanadi. Suhbat elementlari o'qilgan asardan asosiy mazmuni ajratish uchun, voqealar izchilligini, ro'y bergan vaqti va o'rnini, bog'lanishini belgilashga yordam beradi. Suhbat uchun savol tuzishda o'quvchilarning mustaqilligi, hayotdan, o'qilgan boshqa kitoblardan qo'shimcha javob berish hisobga olinadi.

Boshqa darslardagi kabi, bunday darslarda ham kirish suhbat, umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbatlar bo'ladi. Ko'pgina sinfdan tashqari o'qish darslari umumlashtiruvchi darslar kabi o'tkaziladi. Bunday darslarning qurilishida umumlashtirish elementlari bo'ladi. Uslubiy vositalarni tanlash, dars qurilishi (asosiy mazmuni ajratish, taqqoslash, xulosalash, qo'shimcha materialni qo'shishni talab qiladigan savollar kabi) umumlashtirishning vazifasini belgilaydi. Umumlashtirishga ko'rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni ilova qilish ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda kitob o'qishda mustaqillikni tarbiyalash hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi sinfdan tashqari o'qish darsini tashkil qilishda o'quvchilarga beriladigan mustaqil ish va unga barcha o'quvchilarni jalb qilish yo'llarini belgilab oladi. O'quvchilarning mustaqilligini o'stirishga har bir darsda 4 – 6 ta o'quvchi o'qigan kitobi haqida gapirib berishi, o'quv yili davomida har bir o'quvchi bir-ikki marta ommaviy chiqishlarda qatnashishi, darsda barcha o'quvchi, hatto past o'zlashtiruvchi o'quvchi ham o'qishiga (ularni o'rtoqlari oldida noqulay holatda qoldirmaslik uchun asardan biror parchani o'qishga tayyorlab qo'yish mumkin) erishish, suhbatning muhokama xarakterida bo'lishi, berilgan savollar o'qilgan asarni baholashga qaratib tuzilishi ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o'rin beriladi. Bunday darslarda adabiy viktorina (bir mavzu ustida savol-javob o'tkazish o'yini), eng yaxshi insholar, topishmoqlar topish, tanlovlar uyushtirish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoa bo'lib yoki yakka tartibda ertaklar to'qib aytish, o'quvchilar hayoti haqida, yozuvchilarning chuqur ma'noli gaplari va maqollar, latifalar aytish mumkin. Ba'zan o'qituvchilar bunday darslarda "Hazil daqiqasi", "5 minut o'ylash uchun", "Topishmoqlarni top", "Bilimdonlar klubi", ayniqsa, 2000-yildan beri eng keng tarqalgan teleo'yin "Zakovat"ga o'xshash o'yinlarni o'tkazib turadilar.

Sinfdan tashqari o'qish darslarini o'tkazish rejasini o'quv yilining yarmi yoki butun o'quv yili uchun tuzib, darslar sistemasini belgilab olish tavsiya etiladi. Bunday rejalashtirish darsni xillashtirishga, ularning izchil va o'zaro bog'liq bo'lishiga, shuningdek, darslarda ish turlarini taqsimlashga, bolalarga ta'lim-tarbiya berish, bayramlar, ulug' kunlar, fasllarga mos ravishda mavzularni taqsimlashga imkon beradi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining sistemasi dasturda belgilab berilgan bilim, ko'nikma va malaka bilan o'quvchilarni qurollantirishga qarab belgilanadi. Bunday darslar sistemasini ishlab chiqishda kichik yoshdagi o'quvchilarda mustaqil o'qish malakalarini shakllantirishning quyidagi bosqichlarini ajratish muhim ahamiyatga ega:

1. Tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqich 1-sinfdan o'quv yilining birinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bunda hali sinfdan tashqari o'qish bo'lmaydi. Sinfdan tashqari o'qish uchun 20 minutlik

dars qismi ajratiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar saviyasiga mos biror asarni o'qib beradi. O'quvchilar hikoya, ertakni eshitib idrok etishga, o'qilganlarga soddagina baho berishga, mazmun bilan sarlavhaning munosabatini, mosligini aniqlashga o'rgatiladi. O'quvchilar o'qilganlarni so'z bilan tasvirlaydilar, o'qish gigiyenasining asosiy qoidalari va kitobga qanday munosabatda bo'lish bilan tanishadilar.

2. Boshlang'ich bosqich. Bu bosqich 1-sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bunda haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi ajratiladi. O'qish doirasi kengayadi. Bolalar kitob bilan tanishadilar, muallifning familiyasini, kitob nomini topishga, rasmlarini ko'rishga, o'qishdan oldin kitobning taxminiy mazmunini aniqlashga, o'qilganlarni hikoya qilib berishga va soddagina qilib yozib qo'yishga, muhokama qilish va unga o'z munosabatini bildirishga o'rganadilar.

Bu bosqichda bolalar har xil tezlikda o'qiydilar, ko'proq bo'g'inlab o'qiydilar, hali erkin o'qiy olmaydilar. Sekin, ifodalilikka rioya qilmay o'qishlaridan o'zlari qoniqmaydilar. Bu bosqichda o'qituvchi har bir o'quvchiga e'tibor bilan individual yondashishi, kichik kitobxonni kitobni mustaqil o'qishga o'rgatishi kerak. Boshlang'ich bosqichda sinf uchun umumiy bo'lgan kitob sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qib beriladi. Uyga vazifa har bir o'quvchiga individual yondashgan holda topshiriladi. Darsda o'qish uchun beriladigan vazifalar ham individuallashtiriladi: "Bo'sh" o'quvchilar gap qurilishi sodda, notanish so'zlari bo'lmagan kichik bir qismini o'qiydilar. Boshlang'ich bosqichning oxirida o'quvchilarning o'qish malakalari ancha yaxshilanadi. Bolalar so'zlarni sintetik o'qishga, ayrim o'quvchilar tekis va ifodali o'qishga o'tadilar.

O'quvchilar o'rtasidagi individual farq ancha kamayadi. Bolalarning o'qish ishidagi tajribasi ortadi. Bularning hammasi bolalarni keyingi bosqichga o'tishga imkoniyat yaratadi.

3. Uchinchi (asosiy) bosqich. Bu bosqich ikki yil (1-, 2-sinflar)ni o'z ichiga oladi. Bu davr ichida bolalarning o'qish malakalari mustahkamlanadi. Sinfdan tashqari o'qish haqiqiy mustaqil o'qish, sinfdan tashqari o'qish darslari esa o'quvchilarning mustaqil o'qiganlariga rahbarlik qilishning haqiqiy formasiga aylanadi. Asosiy bosqichda sinfdan tashqari o'qishga baho qo'yiladi. (Salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi.) Baho qo'yishda, birinchidan, o'quvchining sinfdan tashqari o'qish dasturi talablarini qanchalik egallagani, ikkinchidan, umumiy sinf ishlariga faol qatnashishi, uchinchidan, mustaqil o'qigan kitoblarning soni va sifati, o'qiganlarini tushunib yetish ko'nikmasi, kitobxonlik bilim doirasi va o'qigan kitoblari yuzasidan muhokama yurita olishi nazarda tutiladi.

Asosiy bosqich oxirida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikmasi va malakalarini egallashlari, eng muhimi, kitobni va mustaqil o'qishni sevishlari zarur.

2-§. Sinfдан tashqari ishlar sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning yordamchi shakli sifatida

Sinfдан tashqari o'qishga rahbarlikning yordamchi shakllari ham bo'lib, bular barcha ishlarni izchil uyushtirishni ta'minlaydi, sinfdan tashqari o'qish darslari uchun sharoit yaratadi.

Bular:

1. Kitobni tashviq qilish:

- Adabiyotlar ro'yxatini e'lon qilib borish;
- Yangi kitoblar ko'rgazmasini tashkil qilib borish;
- Ayrim yozuvchilar asarlari vistavkasini tashkil qilib borish;
- Devoriy gazetalarga ma'lumotlar berib borish;
- Kutubxona xodimlari bilan suhbatlar uyushtirish.

Sinfдан tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati maktabga va sinf burchagiga ilib qo'yilib, vaqti-vaqti bilan yangilanadi va to'ldirib turiladi. Kutubxona xodimlari yoki o'qituvchi tomonidan yangi nashr etilgan adabiyotlar yoki bayram kunlari, shuningdek, ayrim yozuvchilar yubileyiga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinadi.

Maktab yoki sinf devoriy gazetasida o'quvchilarning o'zi o'qigan kitobi haqidagi taqrizi e'lon qilinadi, yozuvchi ijodi haqida va biror mavzudagi kitoblar haqida fotomontaj tayyorlanadi. Kitob o'qishga kutubxonachining sinfdagi suhbat, o'qituvchining o'quvchilar bilan shaxsiy suhbat orqali ham tashviq qilinishi mumkin.

2. Individual yordam va kundalik nazorat.

- O'quvchilar bilan birma-bir suhbat uyushtirish;
- Asar yuzasidan chizilgan rasmlarni muhokama qilish;
- Asar yuzasidan chizilgan rasmlar tanlovini tashkil qilish;
- O'quvchilar kundaligini tekshirish (Unda o'qilgan kitoblar haqida qisqacha ma'lumotlar yozib boriladi.);
- Yozgan insholari bo'yicha suhbatlar uyushtirish.

O'quvchi bilan u o'qiyotgan yoki o'qigan kitobi haqida suhbat uyushtirish, fikr almashish, rasmlarini muhokama qilish, o'qigan kitoblari haqida yozganlarini ko'rib chiqish, o'qigan kitobi haqidagi insho taqrizini tahlil qilish, uy kutubxonasi bilan tanishish, o'qishi haqida o'quvchining ota-onasi bilan suhbat uyushtirish kabi vazifalarni bajarish iaqsadga muvofiqdir.

3. Sinfдан tashqari ommaviy ishlar.

- Adabiy ertaliklar o'tkazish;
- Adabiy viktorinalar o'tkazish;

- Adabiyot o'qituvchilari bilan uchrashuvlar o'tkazish;
- Shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish;
- Adabiy ekskursiyalar o'tkazish;
- Adabiy kompozitsiyalar o'tkazish.

Bu ommaviy ishlarni tayyorlashda o'quvchilarning o'zlari qatnashadilar. (so'zga tayyorlanadilar, montaj qiladilar, ko'rgazmalar tashkil qiladilar, mehmonlarni kutib oladilar, turli o'yinlar uyushtiradilar.)

Ommaviy ishlarni tayyorlashga yuqori sinf o'quvchilari ham jalb qilinadi, ota-onalar taklif qilinadi.

4. Kutubxonaga yozilish.

1-sinf o'quvchilari, o'qish malakalarini egallashlariga qarab, o'qituvchining ruxsati bilan kutubxonaga yoziladilar. O'quv yilining 2-yarmidan boshlab barcha o'quvchilar kutubxonaga a'zo bo'lishlari mumkin. O'qituvchi har oyda bir-ikki marta o'quvchilar kartochkasini (a'zolik guvohnomasini) tekshirib, kutubxona xodimlari bilan suhbatlashib turadi.

5. O'quvchilarning o'qiganlarini hisobga olish.

Maktablarda 1-sinfdan boshlab kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi. O'quv yili oxirida 1-sinf o'quvchilari kundalikka kitob nomi va muallifini yozadilar, 2-sinfda unga nashr etilgan joyi va vaqti, 3-sinfda o'qigan kitobga taqriz yozish va uning mazmuni haqida qisqacha mulohaza yozish qo'shiladi. O'quvchilarning o'qigan kitoblari og'zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o'qigan kitoblari haqida sinfdan tashqari o'qish va o'qish darslarida, yakkama-yakka suhbatda gapirib beradilar.

2-sinfdan boshlab kitobxonlik ishlarini tashkil etishga o'quvchilarning o'zlari ham jalb etiladi. Bolalarni kitobga to'g'ri munosabatda bo'lish, uni ehtiyotlab saqlashga o'rgatish maktabning, sinf o'qituvchisining muhim vazifasidir.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim xususiyatlari, birinchidan, sinfdan tashqari o'qish sistemasining bosqichlari bilan, ikkinchidan, o'quv vazifalari, ya'ni dasturga asosan, uchinchidan, o'qituvchi oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to'rtinchidan, o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

1-sinfda o'quv yilining 1-yarmida – tayyorlov bosqichida yangi matnni o'qituvchi o'qib beradi, ikkinchi – boshlang'ich bosqichdagi sinfdan tashqari o'qish darslarida yangi kichik hajmli kitobni o'quvchilar o'qiydilar, ammo bu vaqtda o'quvchilarda mustaqil o'qish malakasi hali o'smagan bo'ladi.

Tayyorlov bosqichida o'tkaziladigan 20 minutlik sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotida 1-sinf o'quvchilari saviyasiga mos va qiziqarli bo'lgan, 5 – 6 minutga mo'ljallangan hikoya, ertak,

she'rlar tanlanadi, o'qilganlar yuzasidan suhbat, mazmunini qayta hikoya qilish, kitob muqovasini, rasmlarini ko'rishga ham vaqt ajratiladi.

II bob. Boshlang'ich sinf sinfdan tashqari o'qish darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish

1-§. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari mazmuni

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy kamolotida, shu bilan birga, ularni ijodkorlikka o'rgatishda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining roli nihoyatda katta bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchisidan bu mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirish talab etiladi. Birinchi sinflar uchun sinfdan tashqari mashg'ulotlar uchun dasturda aniq soat belgilanmagan. Sinfdan o'qish mashg'ulotlari uchun 60 soat vaqt ajratilgan bo'lib, birinchi sinfdan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar, bolalarning ona-Vatan, istiqlol, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvur-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi.

1-sinfdan sinfdan tashqari o'qish oldiga qo'yilgan bilim va ko'nikmalar mazmuni:

- ◀ O'quv materiali;
- ◀ Bolalarning o'qish malakasini takomillashtirish;
- ◀ Badiiy kitoblardan unumli foydalanish;
- ◀ Mustaqil o'qish ko'nikmasini hosil qilish;
- ◀ Ona-Vatan, uning tabiati, mustaqil respublikamizning bugungi hayoti, bolalarning mehnati va o'yinlari, sayr, sayohatlarda olgan taassurotlarini so'zlash, rasmda ifodalash, kichik hajmli matnlar tuzish;
- ◀ Mustaqil ravishda mutolaa qilish ko'nikmasini hosil qilish;
- ◀ Bolalar badiiy adabiyoti bilan ishlash;
- ◀ Tanish kitoblarning nomini, muallifini aytish, o'zlari qiziqqan kitoblarni tanlab, ular ichidan o'qish uchun matn ajratish;
- ◀ O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, ular orasidagi bog'lanishni so'zlab berish;
- ◀ Asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab ijodiy rasm ishlash;
- ◀ Fikrni yakunlash uchun mos maqollar topish va yod olish.

Ikkinchi sinfdan o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining topshirig'i va yordami asosida mustaqil o'qishga o'tadilar.

Bu sinfdan sinfdan tashqari o'qish uchun 17 soat vaqt ajratilgan bo'lib, dasturga ko'ra, ikki haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi o'tkaziladi, dars oldiga qo'yilgan bilim va ko'nikmalar mazmuni quyidagilardan iborat:

- ◀ O'qish materiallari. 8 – 30 betli hajmdagi bolalarbop badiiy, ilmiy-badiiy kitoblar. O'quvchi ovoz chiqarib mustaqil o'qishi uchun 1 – 5 bet hajmli she'r, ertak va hikoyalar;

◀ O'qish mavzulari. Ona-Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlar;

◀ Bolalar kitobi ustida ishlash (bilim, ko'nikma va malakalar). Kitobning muqovasi (tituli), betlarini farqlay olish;

◀ Kitobning nomi, muaallifi va rasmlar asosida mazmunini aniqlay olish. Kim yoki nima haqida o'qidingiz? savoliga javob berish, kitob mazmunini aniqlash. Qahramonlarning xatti-harakatini, xulqini va ular boshdan kechirgan voqea-hodisalarni mustaqil baholay olish;

◀ Bolalar kitoblarini mustaqil o'qishga ijobiy munosabatni mustahkamlash;

◀ Sinf kutubxonasini tartibga solish;

◀ O'quvchilarga mos adabiy o'yinlarni o'rgatish;

◀ O'qilgan kitobdagi biror voqeani inssenirovka qilish.

Uchinchi va to'rtinchi sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti yorqin tasvirlangan, ularning ma'naviy-axloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. Jumladan, o'quv materiali sifati sarguzashtlarga boy asarlar, ona-tabiat sahovati, kishilarning o'zaro mehr-muhabbati tarannum etilgan, buyuk ajdodlarimizning olamshumul faoliyatlari ko'rsatilgan axloqiy-ma'rifiy hikoyalar, tarixiy badialar, istiqlol to'g'risidagi ilmiy-ommabop maqolalar bilan tanishishga ahamiyat berilgan.

3-sinfda ham sinfdan tashqari o'qish uchun 17 soat vaqt ajratilgan, "Boshlang'ich ta'lim" dasturiga ko'ra, ikki haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi o'tkaziladi.

Sinfdan tashqari o'qish darsi oldiga qo'yilgan bilim va ko'nikmalar mazmuni quyidagilardan iborat:

◀ O'qish doirasi. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalarida, bolalar jurnallarida (o'qituvchi tanlaydi), gazetalarida kichik kitobxon uchun berilgan asarlarni o'qish tavsiya etiladi.

◀ O'quv materiallari. O'zbek va xorijiy yozuvchilarning kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan 18 – 150 bet hajmdagi badiiy va ilmiy-ommabop asarlari. O'qituvchi tanlab tavsiya qilgan bolalar jurnallari va gazetalarini.

◀ O'qish mavzulari. Ulug' ajdodlarimiz haqida o'zbek (Oybek, Abdulla Avloniy, G'. G'ulom, Cho'lpon) va qardosh xalqlar (Ch. Aytmatov), chet el yozuvchi va shoirlari yozgan kichik maktab yoshidagi bolalarga mo'ljallangan asarlari, armiyamiz va uning qahramonlari to'g'risidagi kitoblar, turli xalqlar ertaklari.

3-sinfda bolalar bilan kitob ustida ishlashda bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish.

◀ Kitob ichki muqovasi, varag'i, mundarijasi, so'z boshi, xotimasini bilish va ularga qarab notanish kitobning taxminiy mazmunini aniqlash. Bir muallifning bir necha kitobi yoki

turli mualliflarning bir mavzudagi kitoblari orasidan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotiga oid kitobni tanlash, uni izohlab berish;

◀ O'quv yilining birinchi yarmida ikki haftada hajmi 10 – 12 betli va o'quv yilining ikkinchi yarmida ikki haftada hajmi 20 – 25 betli kitobni o'qib chiqish. O'qituvchi tavsiyasi asosida o'qilganlar yuzasidan savollarga javob berishga tayyorlanish, kitob yoki asar nomini eslab, to'g'ri aytish va ularning mazmunini so'zlab berish.

◀ Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida tanishib chiqilgan yozuvchilarning ikki-uchta kitobini bilish.

◀ Matn ustida ishlab orttirilgan kitobxonlik malakalarini mustahkamlash, ayniqsa, asarni tugallangan mazmunli qismlarga bo'lish va qayta hikoyalashga oid o'rganilgan ish turlaridan foydalanib, uning mazmunini so'zlab berish.

◀ Tavsiya etilgan ro'yxat va mavzuli kartochohalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

◀ Adabiy o'yinlar bilan tanishtirish, ular bilan darsdan tashqari vaqtda shug'ullanishga qiziqish uyg'otish.

4-sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan asosiy talablar:

4-sinfda ham sinfdan tashqari o'qish uchun 17 soat vaqt belgilangan. Sinfdan tashqari o'qish "Boshlang'ich ta'lim" dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari ikki haftada bir marta o'tkaziladi va o'qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Shunga erishish kerakki, o'quvchilar o'zlariga tanish ijodkorlarning asarlarini tanlab o'qisinlar.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning ham kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish o'qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

"Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda o'quvchilarni darsdan tashqari foydali ishlarga jalb etish muhimligi alohida ta'kidlanadi. Maktablarimiz tajribasida xalqimizning milliy urf-

odatlari va an'analarini o'quvchilar qalbiga singdiradigan va ularning ijodiy qobiliyatlarini o'stiradigan sinfdan tashqari ishlarning turlari ko'p.

Hozirgi paytda kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida hayotga tayyorlashning samarali usullarini izlash va ularni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, umrboqiy an'analarimizga, qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarishlariga imkoniyatlar yaratish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh omilidir. Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab hayot jarayonida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot kabilar bevosita ta'sir qiladi. Umumta'lim maktabi o'quvchilarni umrboqiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda dars bilan bir qatorda, sinfdan va maktabdan tashqari o'tkazilayotgan tadbirlar ham katta ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari o'qish ishlarining samaradorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishdir. Zero, bunda o'quvchilarning qiziqishlari, istaklari, xohishlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, unda **dasturning rang-barangligi**, ular mazmunidagi **yangiliklarning** hayot bilan bog'liqligi, ijtimoiy siyosiy hayotda, dunyoda bo'layotgan o'zgarishlarning nechog'lik ahamiyatga molik ekanligini namoyon qiladi, inson hayotidagi ahamiyati, hayotga pok, vijdonan, insoniylik ko'zi bilan qarashga o'rgatadi, shaxs sifatida shakllanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardan oq ishongan. U o'zining noyob asarlarini so'z mo'jizasi bilan bunyodga keltirgan. Badiiy so'z xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Hali yozuv nimaligini bilmagan vaqtlarda ham odamlar o'yin- kulguni, surat chizishni bilishgan.

Xalqimiz bag'ridan ajoyib iste'dod sohiblari: mutriblar va mashshoqlar, roviylar va sangtaroshlar yetishib chiqqan. Ana shunday olis tarixning izlari, aks sadolari xira bo'lsa-da, xalq termalari va dostonlarida, ona allalari va bola o'yinlarida saqlanib qolgan. Maqol va matallar, ertak va afsonalar, latifa va chistonlar hamda qahramonlik dostonlarida xalqning aql-zakovati, orzu- havasi, ruhi va irodasi singdirilgan. Xalq ijodi shu xalqning, jamoaning donoligi, jamoa san'ati mahsulidir. Bularning hammasidan bolani aqliy va jismoniy jihatdan sog'lom qilib o'stirishda, murg'ak qalbni chiniqtirishda samarali foydalanilgan.

Bola endigina dunyoga kelgan kundan boshlab, onaning ardog'ini, yoqimli allasini eshitadi. Bolalar uchun maxsus yaratilgan bu poeziya kishi ongiga ona suti bilan kiradi. Keyinchalik u tobora kengayadi, rang - barang ohanglar, xilma-xil obrazli so'zlar bilan to'la boshlaydi. Asta - sekin kattalarning bolalarga ataganlari, ertaklar, allalar, ermaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar shaklida to'planib, kichkintoylar uchun kattagina og'zaki badiiy adabiyot yuzaga keladiki, shu adabiyotning barakali ta'sirida bolaning ma'naviy dunyosi shakllanadi. Bunday adabiyot bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan, bola ruhiyatining barcha qirralarini o'zida aks ettirgan bo'ladi. Bolalar ermaklari, o'yinlari, qo'shiqlari va ularning kelgusidagi amaliy xatti-harakatlari uchun poydevor hozirlaydi. Bolalar o'z harakatlarida, mashg'ulotlarida kattalarga taqlid qiladilar, tezroq ulg'ayishni orzu qiladilar. Bolani yoshligidayoq foydali ishlarga o'rgatish, o'yinlari, qo'shiqlari, mashg'ulotlari orqali bo'lsa-da, uni jamoaning oddiy, ammo munosib a'zosi qilib o'stirish, tez o'suvchan, foydali ishga yo'naltirish butun insoniyat orqali eng muhim vazifa bo'lib kelgan. Bunda bolalar folklorining ahamiyati benihoya kattadir. Bolalar folklori bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlarini: vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini, kattalar bilan birgalikda tabiat ofatlariga qarshi kurashish va ularni yengish malakalarini tarbiyalaydi. Turgan gapki, bu omillarning hammasini bolalar kayfiyatini, xarakterini bilmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Onaning bola bilan muloqotidan boshlangan lirik hislar, shoirona lavhalar, bola o'sgani sari o'sadi, kengayadi, turlarga ajraladi. Alla aytgan ona ijodining asar yaratish jarayoni o'ziga xos – u beshik ustida bugun aytgan so'zlarini ertaga boshqacha qilib takrorlaydi, nimanidir o'zidan qo'shib kechagiga qaraganda bugun boyitibroq aytadi. Shu yo'sinda allalar ermaklar, ertaklar, qo'shiqlar, termalar, topishmoqlar, xullas, kichik irmoq yig'ilib, daryo hosil qilganidek, jajjilarga atalgan butun boshli katta og'zaki adabiyot — bolalar folklori paydo bo'lgan.

2-§. Milliy g'oya va xalq og'zaki ijodi — mushtarak hodisa

Milliy g'oya ko'p millatli o'zbek xalqining "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish" yo'lidagi asriy orzu-umidlaridir. Milliy g'oya o'lmas qadriyatdir. Chunki u ajdodlarimizdan meros qilib olingan. Kelajagimiz yulduzlari bo'lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash uchun, albatta ularga milliy g'oyani ana shu sabablari bilan tushuntirib, uning mazmun va mohiyatini o'rgatishimiz lozim.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini milliy g'oya ruhida tarbiyalashda xalq og'zaki foydalanish, o'tmish ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya sohasidagi ko'p asrlar davomida orttirilgan boy tajribasini o'zlashtirish va shu asosda yosh avlodni Respublika taraqqiyotida faol ishtirok etadigan sog'lom va bilimdon qilib tarbiyalash vazifasi davrning g'oyat muhim va dolzarb masalasidir.

"Istiqlol millatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyotida yangi bosqich, milliy tariximizda, turmushning barcha sohalarida yangi sahifa ochgan buyuk hodisa bo'ldi. Avvalgi chor hukumati, keyin sho'ro tomonidan yurgizilgan mustamlakachilik siyosati milliy tafakkurda o'gir asoratlar qoldirdi. Istiqlolga erishilgach, O'zbekiston rahbariyati ma'naviyat va ma'rifat ishlariga alohida e'tibor bergani, buni davlat siyosati maqomidagi vazifaga aylantirgani bejiz emas, balki ijtimoiy-tarixiy zarurat edi.

Kishilarning ongini sho'ro mafkurasi asoratlaridan forig' etish, jamiyatimizning ertasini belgilaydigan yangi avlodni tarbiyalash kunning eng dolzarb vazifasiga aylandi. Tabiiyki, bunda adabiyot va san'atning faol ishtiroki zarur edi".¹

Mamlakatimiz rahbari I.A Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ham xalq og'zaki ijodiga alohida e'tibor berilgan va qimmatli fikrlar bayon etilgan. "Ma'lumki, bu dunyoda har qaysi millatning o'z afsonaviy qahramonlari, o'zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari bo'ladi. Xalqimiz azal-azaldan o'z vujudi, o'z tomirida mavjud ilohiy qudratiga munosib bo'lmoqqa intilib, o'z o'glonlarini mardlik, halollik va jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan"².

Darhaqiqat, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, mardlik, halollik, jasurlik ruhida yoshlarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining juda katta ahamiyati bor. Ayniqsa, ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati borasida "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar" deb bejiz aytilmagan.

Mustaqillik, umuman, xalq qadriyatlariga, xususan, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabatda keskin ijobiy o'zgarish yasadi. Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asaridagi "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" deb atalgan bo'limida: "O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi", — deyilgan. "Bu negizlar:

¹ B. Raxmonov. O'zbek adabiy tanqidchiligi. "Yangi avlodi", 2004, 129-bet.

² I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. "Ma'naviyat", 2008, 19-bet.

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o’z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik” — deb belgilab qo’yilgan.

Yuqorida qayd etilgan to’rt negizning har biri bevosita xalq og’zaki ijodi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma’naviy boyligi – pand, o’g’itlari, el-yurt qadrini e’zozlash, millatimiz g’ururini himoya qilishdek oliy tuyg’ular bilan bo’lganadi. Haqiqatan ham, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, avvalo, milliy qadriyatlarga sadoqat mezoni bilan o’lchanadi. Zero o’z qadrini bilmagan farzand o’zganing qadriga yetmaydi. Xalqimiz og’zaki ijodidagi asarlarda esa aynan ana shu g’oya o’z ifodasini topgan.

“Ozbekiston buyuk kelajak sari” asarida ilgari surilgan fikrlar izchillik bilan hayotga tadbiiq etila boshlandi. Xalq Yurtboshimiz tomonidan aytilgan har bir mulohaza bevosita davlat siyosati sifatida ro’yobga chiqishiga ishondi. Bunday rejalar esa xalq og’zaki ijodi ham davlat maqomiga ega ekanini tasdiqlaydi.

Ma’naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o’rnini, xalqqa, vatanga, atrofdagi odamlarga bo’lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma’naviy qashshoq kimsa hayotda ro’y berayotgan voqealarga loqayd bo’ladi. Loqaydalik esa tuzatib bo’lmas oqibatlariga olib keladi. Ma’naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun kekxa avlod, avvalo, farzandining ma’naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo’shiqlari, maqollari va boshqa o’nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma’naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishishini ta’minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. O’tgan asrgacha bugungi kundagi matbuot, o’quv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televideniya, internet kabi ta’lim, ma’rifat tizimi bo’lmagan. Bu vazifalarni bajarish, asosan, xalq og’zaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Natijada, xalq og’zaki ijodi xalq pedagogikasi zaminini tashkil etgan. Odatda, xalqning mustaqilligi, uning ravnaqi badiiy adabiyot bilan uzviy bog’lanadi. Og’zaki ijod esa, badiiy adabiyotning ajralmas qismidir.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq davlatimiz o’tmish qadriyatlarini qaytadan tiklash, odamlar qalbida tutqunlikda yotgan madaniy merosimizga keng yo’l ochish siyosatini amalga oshirdi. Dunyo ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo’shgan buyuk allomalarimiz nomlari, ularning kashfiyotlari haqidagi ma’lumotlar qatori turli munosabatlar bilan urf-odatlar, rasm-rusumlar ham tilga oлина boshladi. Bu tadbirlar har bir o’zbek qalbida milliy g’urur tuyg’usini uyg’otish maqsadini nazarda tutdi.

1999-yil 9-noyabr kuni esa “Alpomish” ning ming yillik to’yi nishonlandi. Bu tantanada so’zga chiqqan Yurtboshimiz Islom Karimov dostonning millatimiz g’ururini tarbiyalashdagi ahamiyatini alohida ehtirosli so’zlar bilan izhor etdi:

““Alpomish” – o’zbekning o’zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o’tkazib kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir. Aslida xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo’lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shohbaytidir”.¹

Xalq og’zaki ijodiga bu qadar yuqori baho berishning chuqur ildizi bor. 1997-yil 29-avgust kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasida Islom Karimov mamlakat kelajagini belgilovchi “Barkamol avlod – O’zbekiston tarqiyotining poydevori ” deb atalgan nutq so’zladi. Mazkur nutqda shunday fikr beriladi: “Chor Rossiyaning Turkiston o’lkasidagi general-gubernatori M.Skobelev: “Millatni yo’q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san’atini, tilini yo’q qilsang bas, tez orada o’zi tanazzulga uchraydi”, — deb aytgan gapini eslashning o’zi kifoya qiladi”.

Ma’lum bo’ladiki, madaniyat, san’at, til xalqning xalq sifatida ravnaq topishining bosh omili ekan. Xalq ijodi esa madaniyat, san’at, tilning asosini tashkil etuvchi tarkibiy qismidir.

2008-yilda “Ma’naviyat” nashriyoti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” deb atalgan kitobini nashrdan chiqardi. Avallo, aytish kerakki, kitobxon asarning boshidan oxirigacha xalq qadriyatlarini, o’tmish madaniyati, tarix haqidagi chuqur ilmiy mulohazalar bilan tanishadi. Ayniqsa, muallifning xalq og’zaki ijodiga bo’lgan hurmati har bir sahifada aniq ifodalanib turadi:

“Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og’zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo’lyozmalar... bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir”.

Xalqimiz og’zaki ijodining davlat maqomida e’zozlanishini O’zbekistonning mustaqillikka erishishining ijobiy natijasi sifatida baholash mumkin. Yurtimiz barkamol avlodini xalq og’zaki ijodidan mukammal ma’lumotga ega bo’lmagan holda tasavvur qilib bo’lmaydi.

Xalq og’zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo’lgan pand- nasihatlarini, el e’zozlagan odam bo’lishning talab-qoidalari, Alp Er To’nga, To’maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlarini, milliy fazilatlarimiz haqida san’at darajasiga ko’tarilgan so’z tizimlaridan iborat maqol,

¹ Karimov I. “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimida so’zlagan nutq. //”Xalq so’zi”, 1999. 9 noyabr.

qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og'zaki jodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, uning ma'nosi "xalq donoligi" degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushiniladi.

Xalq og'zaki ijodining so'z san'ati ekanligini tushinishdan avval san'atning o'zini nimaligini bilish lozim. 5 jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"da (3-jild, 442-b): "San'at" ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar deb ko'rsatilgan. Agar izohdagi so'zalarga e'tibor bersak, san'at deganda, mahorat bilan amalga oshirilgan mehnatni tushinish anglashiladi. San'atni mahoratsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun ustozlarimiz "San'at – inson aql-u zakovatining buyuk kashfiyotidir", deyishdan toliqmasdilar. Ayni paytda, "San'at mahoratning eng oliy darajasida vujudga keladi", degan gapni ham ko'p takrorlar edilar.

Badiiy adabiyot bilan o'z hayotini bog'lagan shaxs istalgan so'z san'ati namunasi bilan tanishganda, baho berish mezonining aniq bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, har bir so'z san'ati namunasi, jumladan, xalq og'zaki ijodidagi qo'shiq, ertak, doston va boshqa asarlarda fikriy yangilik bo'lishi lozim. Bu yangilik kichik hayotiy voqeadan tortib murakkab ijtimoiy vaziyatlarni baholash bilan belgilanadi. Inson hayoti davomida son-sanoqsiz yangiliklarga duch keladi. Katta avlod vakili tajribasidagi oddiy haqiqatlar yoshlar uchun yangilik hisoblanaveradi. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi asarlarini eshitganimizda, ular bilan kitobdagi matn vositasida tanishganimizda juda ko'p yangi-yangi fikrlarga duch kelamiz.

Masalan, "Qozonga yaqinlashsang, qorasi yuqar; yomonga yaqinlashsang, balosi" maqolidagi asosiy fikr yomonga yaqinlashgan odamning taqdirida noxush voqealar ko'payishidan ogohlantirishdir. Lekin, aslini olganda, maqolning birinchi qismida ham ehtiyotlik belgisi aniq ko'rinib turibdi. Ya'ni xalq yosh va hali turmush tajribasiga ega bo'lmagan farzandga qozonga yaqinlashayotganda qora qurum tegishidan ehtiyot bo'lishni tavsiya qilmoqda. Qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, har bir inson muayyan vaziyatda ish qilar va qarorga kelar ekan, ehtiyot choralari esidan chiqarmasligi uqtirilmoqda. Ayni chog'da, og'zaki ijodimiz asarlari bilan tanishar ekanmiz, millat taqdiriga va ijtimoiy vaziyatlarga bogliq muhim ahamiyatlarga ega yangiliklar ifodalanishiga guvoh bo'lamiz.

Ikkinchidan, asar shakli va mazmuni jihatdan mutanosib bo'lishi kerak. Badiiy adabiyotda jins (ayrim nazariy kitoblarda – adabiy tur) va janr tushunchasi bor. Xususan, dostonlar ming-ming misralardan iborat she'riy va hajm jihatdan katta nasriy parchalardan tashkil topadi. Xalq farzandlarining hayoti esa el - yurt taqdiri asosida yoritiladi. Shunday qilib, ropishmoq, askiya, qo'shiq va boshqa janrdagi asarlar ham o'zlarida aks etayotgan mazmun bilan shaklan mutanosib bo'lishi zarur. Aytmoqchimizki, bir-ikki sahifa hajmiga ega maqol va

topishmoq bo'lmagani kabi aynan shunday hajmdagi dostonni ham uchratmaymiz. Maqol va topishmoqlarning hajmi o'ta siqqligi, dostonlar esa hajmiy kengligi bilan asrlar davomida xalq xizmatini bajarib kelgan.

“Xalq og'zaki ijodi – so'z san'ati” deganimizda, shuningdek, ertakchi, baxshi, qo'shiqchi, askiyaboz, latifachi ijrochilarning tinglovchilarga bag'ishlayotgan ma'naviy lazzatini ham unutmaslik lozim. Xalq qo'shiqlarida aks etgan his-tuyg'u, ichki kechinmalar; ertaklardagi g'aroyib voqealar; dostonlardagi go'zal tasvirlar, eng avvalo, zargarona tanlangan so'zlardan iboratligi, ikkinchidan, ularning mahorat bilan ijro qilinishi asrlar davomida xalqimizga zavq bag'ishlagan. Shuning uchun ham mazkur asarlar o'zbek xalqi ma'naviy xazinasining bebaho qadriyatlari sifatida hamisha e'zozlangan.

3-§. Sinfдан tashqari o'qish darslarida xalq og'zaki ijodini o'rganish

Xalq og'zaki ijodi yaxlit bir termin — folklor deb ham yuritiladi. Folklor atamasi xalq donishmandligi degan ma'noni anglatadi. U ibtidoiy davrda yuzaga kelgan. Qadimda madaniyat, asosan, xalq og'zaki ijodida ko'ringan, insonlar yozuvni o'rgangunlariga qadar ko'proq o'zlarining dard-u quvonchlarini, sevinch-u istiroblarini, orzu o'ylarini qo'shiq qilib kuylashgan. Ular asosida o'zining ertaklarini yaratganlar. Ularda xalqning dardi yoritilgan, orzulari tarannum etilgan. Xalq og'zaki ijodi juda ham katta ma'naviy boylik manbai hisoblanib, uni o'rgatish davomida xalqimizning tarixini va o'sha davrdagi madaniyatini o'rganishimiz mumkin. Xalq og'zaki ijodining rivojlanishi xalq madaniyatining o'sishini ta'minlagan.

Xalq og'zaki ijodida bolalar uchun yaratilgan asarlar soni ham ko'pchilikni tashkil etadi. Bu asarlar ertaklar, topishmoqlar, maqollar va qo'shiqlar kabi janrlardan iborat. Xalq og'zaki ijodi bilan bolalar maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab tanisha boshlaydilar. Bolalar bog'cha davrida xalq og'zaki ijodi namunalaridan ertaklar bilan tanishadilar, ertakdagi obrazlar rolini ijro etadilar. Bular bolalar uchun zavq-shavq bag'ishlaydi. Xalq og'zaki ijodida obrazlarning yorqinligi so'z ma'nolarining aniqligi, matnning ohangdorligi, musiqiyliigi kabi xususiyatlar bolalar ruhiga orom, huzur bag'ishlaydi.

Kichik yoshdagi bolalar qiziquvchan va ishonuvchan bo'lganligi sababli, ayniqsa, ertaklarni xush ko'radilar. Shu sababli boshlang'ich sinflar darsliklarida ertaklar asosiy rol o'ynaydi. Aytaylik, bitta “O'qish kitobi”da 35 ta ertak berilgan bo'lsa, 3-4 tasidan tashqari barchasi xalq og'zaki ijodiga mansub ertaklardir. Darsliklardan topishmoqlar ham keng o'rin olgan. Chunki topishmoqlarga, ularni topishga qiziqmaydigan bolaning ozi yo'q. Darsliklarga xalq og'zaki ijodidan olingan asarlar faqatgina bolalar qiziqqanliklari

uchungina kiritilmagan. Bunda bir qator ta'lim- tarbiyaviy maqsadlar ko'zda tutilgan. Bu maqsadlar quyidagilardan iborat:

1. O'zbek xalqining o'tmishiga oid ma'lumotlarni berib borish.
2. O'z millati, ma'naviyati va madaniyatini o'rgatish.
3. O'quvchilarga yaxshilik qilish, vatanparvarlik, fidoiylik kabi xislatlarni singdirib borish.
4. O'quvchilar nutqini o'stirish.
5. O'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish.
6. O'quvchilarda mavzuga to'g'ri yondashish malakasini hosil qilish.
7. O'quvchilarni mantiqiy fikrlash tezligini oshirish.
8. Adabiyotshunoslikka oid bilimlarni berib borish.

Avval aytib o'tganimizdek, yuqoridagilar xalq og'zaki ijodining boshlang'ich sinflarda o'rgatilishidan maqsadlar edi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ushbu maqsadlarni o'qitish jarayonida o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymoqliklari lozim. Ular orqali oquvchilar juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. O'qituvchi esa ana shunday imkoniyatlardan to'g'ri foydalana bilishi lozim.

O'qish darsining sinfdan tashqari soatlarida folklor asarlaridan foydalanish mumkin. Chunki hayotda folklor asarlariga juda ko'p murojaat qilamiz. Ularga hayotda ko'p duch kelamiz, unga yaqqol bir misol, beshikdanoq bola hali tilni, so'zlarni tushunmaydigan davridanoq onalarning alla aytishidir.

Alla — xalq og'zaki ijodi na'munalaridan biri, onalarning farzandlariga atab aytadigan qo'shiqlari. Bola so'zlarni tushuna boshlagan paytdan boshlab kechalari ertaklar aytib beriladi. Chunki ertaklar bolalarning jon-u dilidir. Biroz esini tanigach esa ularda topqirlikni shakllantirish uchun topishmoqlar aytiladi. Bola nutqini rivojlantirish uchun esa tez aytishlardan foydalaniladi. Topishmoq va tez aytishlar bolalarning qiziquvchanlik xislatlariga mos janrlardir. Boshlang'ich sinflarda xalq qo'shiqlari ham o'rganiladi. Bolalar qo'shiqlarga ularning tushunarlilik va musiqiyligi uchun ham bog'lanib qoladi.

Masal ham xalq og'zaki ijodi janrlaridan biridir. Masal axloqiy mazmuni kinoyaviy timsollar orqali aks ettiradigan badiiy asardir. Masalda insonga xos xususiyatlar kinoyaviy timsollar: hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Masalda fikrning qisqa, lo'nda, chiroyli va ifodali tasvirlanishi, tilning o'tkirligi va xalqchilligi o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishda muhim vosita bo'ladi.

Bolalarni masaldagi kinoyaviy mazmun emas, balki, birinchi navbatda, timsollarning go'zalligi jalb etadi. Shuning uchun masal ustida ishlashda hayvonlar hayotidan yozilgan hikoya tarzida ishlash maqsadga muvofiq. Odatda, masal personajlari o'z xatti-harakatlari,

fe'l-atvori va nutqiy uslublar bilan o'zlarini tasvirlaydilar, ba'zan personajlarni to'ldiradilar. Muallifning o'zi esa bir-ikki so'z bilan tasvirni mukammallashtiradi.

Ertak va masaldan tashqari, boshlang'ich sinf darsliklaridan topishmoqlar ham o'rin olgan. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodiyotining qadimiy janrlaridan biri bo'lib, odamlarning, ayniqsa, bolalarning zehni o'stirish uchun yaratilgan. Topishmoqlarda narsa va hodisalarning ma'lum belgilarigina o'rgatiladi.

Topishmoq ustida ishlash ana shu tarzda olib boriladi.

Bundan asosiy maqsad esa quydagilardir:

- 1) O'quvchilarning izlanuvchanligini oshirish;
- 2) Topishmoqlarga qiziquvchanligini oshirish;
- 3) O'quvchilarning ziyakligini oshirish;
- 4) Fikrlash qobiliyatini o'stirish;
- 5) Darsdagi faollikni taminlash.

Tez aytishlar ham donishmandlikning mahsuli hisoblanadi. Ular ham pedagogik xarakterdagi janr bo'lib bolalarning tez va to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatadi. Bolalar ba'zi bir undoshlarni to'g'ri talaffuz qila olmaydi. Inson hayotida to'g'ri va tez talaffuz qilishining ahamiyati katta. O'z fikrini to'g'ri va chiroyli ifodalay oladigan insonlar hayotda yutqazmaydi, unday qila olmaydiganlar esa yutqazishlari mumkin. Boshlang'ich sinflarda tez aytishlarni o'rgatish va ulardan foydalanish quyidagi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- 1) O'quvchilar nutqidagi bir qator kamchiliklarni yo'qotish;
- 2) O'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini hosil qilish.

Boshlang'ich sinf darsliklarida topishmoqlar o'ziga xos o'rinni egallagan. Chunki o'quvchilar nutqining tekis ravon va chiroyli bo'lishi uchun, asosan, boshlang'ich sinflarda tamal toshi qo'yiladi.

Xalq qo'shiqlari, ertak va maqollar, qo'shiqlar ham xalq og'zaki ijodi tarkibiga kiruvchi janrlardan. Ularni o'rgatish boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rgatish metodikasiga asoslangan holda amalga oshiriladi.

3.1. Sinfdan tashqari o'qish darslarida ertaklardan foydalanish

Boshlang'ich sinfda xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan ertaklarni o'rgatishda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirishga, mazmunga, ketma-ketlikka, uzviylikka alohida e'tiborni qaratish lozim.

Ertak xalq og'zaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo'lib, uning ko'pida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo'shib ketadi. Ertakning o'tkir, maroqli syujeti, voqealar rivojida favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi: undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ezgu kuchlarning, yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya shakli, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifodali vositalarning jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Voqeada qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlarga bo'linadi. Ertakning pedagogik qimmati shundan iboratki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganligidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday bo'lishini istaydilar, bu esa personajlarning xatti-harakatini muhokama qilish, baholash ko'nikmasini o'stiradi.

O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida "Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqadi?", "Nima uchun?" "...Nega jazolandi?", "Nima uchun ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi, ba'zilardan aksincha, yuz o'giradi?" kabi savollarga javob berish uchun o'ylanadilar, ertak qahramonlarining xatti-harakatini muhokama qilib, uni baholashga o'rganadilar. "**Ur, to'qmoq**" ertagidagi asosiy fikr yaxshilikka yaxshilik qaytishi, yovuzlik qoralanishini ifodalashdan iborat bo'lsa, "**Donishmand**"da ahillikka undashdan iborat.

Ertakda xalq hayotini uning o'zi hikoya qiladi. Shuning uchun o'quvchilar ertakni o'qish bilan ma'lum davrdagi xalq hayotini, o'ylari va orzu-istaklarini bilib oladilar. Ertak o'quvchilar nutqini o'stirishda ham katta ahamiyatga ega. Ertak matni bog'lanishli nutqni o'stirish uchun zarur material beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar uni juda qiziqib, obrazli ifodalarni va tasviriy vositalarini, o'ziga xos sintaktik qurilishini, gap tuzilishini saqlagan holda jonli aytib beradilar.

Matn bilan ishlashda ham tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari savol tuzib, javob berishlari, so'z bilan va grafika, rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalash kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda ertaklardan foydalanish o'quvchilarni mehnatsevarlik, vatanparvarlik, qahramonlik va kishilarga nisbatan hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalaydi. Muhimi, ertaklarning mazmunan va matn qurilishiga ko'ra oddiydan

murakkabga qarab ketma-ket o'rgatilishi ta'lim va tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshlangich sinflarga o'rgatiladigan folklor asarlarning eng asosiy janri ertak hisoblanadi. Ularda kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning ko'pida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo'shib ketadi. Ertaklarning o'tkir maroqli syujeti, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining, yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni doimo o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifodali vositalarning jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilarning rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z kabi timsollarga bo'linishi o'quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ertak bolalarda personajlarning xatti - harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stiradi. Ertakda xalq o'z hayotini o'zi hikoya qiladi, shuning uchun o'quvchilar ertakni o'qish bilan ma'lum davrdagi xalq hayotini, o'ylari va orzu- istaklarini bilib oladilar.

„Oltmish gaz arqon“ ertagi 3-sinfda sinfdan tashqari o'qiladigan ertaklar tarkibiga kiruvchi ertakdir. Bu ertakda, asosan, vatanparvarlikka chaqiriladi. Bu ertak ustida ishlash, asosan, quydagicha amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarni „Oltmish gaz arqon“ ertagini idrok etishga tayyorlash.

Buning uchun eng avvalo, o'quvchilar bilan vatanparlik, qahramonlik, fidoiyluk kabi xislatlar yuzasidan suhbat olib boriladi. O'quvchilardan vatan haqida tushunchalar so'raladi va ular kengaytiriladi.

2. Ertakni ifodali o'qish.

Bunda o'qituvchi ertakni o'zi ifodali qilib o'qib beradi. O'qituvchi ertakni ifodali qilib o'qib berganida, ertak mazmuni bolalar uchun tushinarli bo'lishi bilan birga, ularning qalbiga yetib borgan va tasirlangan bo'lishi lozim. O'qituvchining ifodali o'qiy olish malakasi yuqori bo'lishi lozim. Shunda o'quvchilar ham unga havas qiladilar. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish ham o'qituvchining qo'lida ekanligini hech qachon unutmasligimiz lozim.

3. Dastlabki taassurot bo'yicha suhbat.

„Oltmish gaz arqon“ ertagini o'qituvchi o'qib bergach, shu ertak yuzasidan dastlabki taassurot asosida suhbat olib boradi.

O'qituvchi bu suhbat davomida o'z ta'sir doirasini ozmi-ko'pmi bilib olishi mumkin. Sababi — ertakni o'quvchilarda katta yoki kichik, chuqur yoki sayoz iz qoldirgani ko'p jihatdan o'qituvchining qanday o'qib berganiga bog'liq.

Dastlabki taassurot bo'yicha suhbatni quyidagi savol-javoblar orqali amalga oshirish mumkin:

O'qituvchi:

– Bolalar, ertak sizlarga yoqdimi? Nima uchun?

O'quvchilar:

– Ha, yoqdi.

– Ertak kampir bilan uning o'g'li va ularning qilgan ishlari, yurtiga qilgan foydali ishlari haqida ekan.

O'qituvchi:

– Juda ham to'g'ri. Kelajakda sizlar ham albatta ana shunday bo'la olishingizga ishonchim komil. Lekin buning uchun sizlar ko'p o'qishingiz va izlanishingiz zarur. Shunda aqlli va qo'rqmas bo'lib yetishasizlar.

4. „Oltmish gaz arqon“ ertagini izohini o'qish.

Bu safar ertak faqatgina ifodali o'qilmay, tushunish qiyin bo'lgan so'zlar tahlil qilingan holda izohli o'qiladi. O'quvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan so'zlar jumlar orqali va shu so'zning sinonimi hamda antonimini aytish orqali izohlanadi. Ertak izohli o'qib berilgach, bolalar uchun ma'no va mazmunini bilmaydigan hech qanday so'z, so'z birikmasi yoki jumla qolmasligi kerak.

5. Ertak matnini tahlil qilish.

Ertak matnini tahlil qilishni suhbat, bahs-munozara tarzida amalga oshirish mumkin. Unda o'qituvchi quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qilishi lozim:

- Ertak qanday voqeaning yuz berishi bilan boshlanibdi?
- Kampir va uning o'g'li qanday odamlar ekan?
- Kampirning qo'shnisi unga nimani taklif qilibdi?
- Qo'shnisining taklifi unga yoqdimi?
- Qo'shnisining taklifi to'g'rimi yoki noto'g'rimi?
- Kampir va uning o'g'li xalqiga qanday yordam berishdi?
- Siz ularning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?
- Ertakda siz uchun eng yoqqan obraz qaysi va nima uchun?

6. Ertak matniga reja tuzish.

Ertak matni tahlil qilib bo'lingach, unga reja tuziladi. Matnga reja tuzish orqali o'quvchilarda insho va bayon yozish uchun reja tuza olish malakasi shakllantiriladi. Shuning uchun ertak matni uchun rejani o'qituvchinig yolg'iz o'zi tuzib bermasligi kerak. Reja o'quvchilarning fikri asosida tuziladi. U fikrlar xilma-xilligi asosida mukammallashtiriladi.

O'qituvchi o'quvchilar fikrini tahlil qilib, ularning ichidan eng to'g'rilarini tanlab olishga yordam beradi.

7. **Reja asosida ertakni qayta hikoyalash.** O'quvchilar o'zlari tuzgan reja asosida ertakni so'zlab beradilar. Reja asosida ertak qayta hikoyalanganida rejaning qay darajada mukammalligi va qulay tuzilganligini bilish mumkin. Hikoyalash jarayonida o'quvchilarning ko'pchilik oldida gapira olishiga bo'lgan ishonchlari kuchaytiriladi.

8. **Umumlashtiruvchi suhbat.**

„**Oltmish gaz arqon**“ ustida ishlash jarayoni umumlashtiruvchi suhbat bilan yakunlanadi. Bu suhbat quydagicha savol- javoblar asosida amalga oshiriladi:

O'qituvchi:

- Shaharni yov bosganda aholi nima uchun jangga otlandi?

O'quvchilar:

- O'z yurtini sevganligi uchun, uni himoya qilish uchun.

O'qituvchi:

- Kampirning yungni eshib tayyorlagan arqoni qanday natija berdi?

O'quvchilar:

- Arqon tufayli boshqalar ham yuqoriga chirmashib chiqib oldilar. Arqon ularga g'alaba qozonishida katta yordam berdi.

O'qituvchi:

- Ha, juda ham to'g'ri aytdinglar, bolalar, sizlar ertakni juda yaxshi o'zlashtiribsizlar.

Ana shunday umumlashtiruvchi suhbat ertak ustida ishlashning yakuniy qismi hisoblanadi.

3.2. Sinf dan tashqari o'qish darslarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish

Qo'shiq she'rning musiqaga solib aytilishi uchun mo'ljallangan shakliga aytiladi. Qo'shiq janri janr sifatida folklorshunos olim Xodi Zaripov va boshqalar tomonidan qo'llangan. Xalq qo'shiqlari orasida bolalarbop, ya'ni bolalar uchun yaratilgan qo'shiqlar ham bor. Ularni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish maqsadida darsliklarga ham kiritilgan. Qo'shiqlar inson ruhiga osoyishtalik olib keladi. Bolalarning ham quvonishiga sababchi bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda xalq qo'shiqlari ustida ishlash quydagicha bo'ladi:

1) **Xalq qo'shiqlari haqida ma'lumot berish.**

Xalq qo'shiqlari ustida ishlashning dastlabki bosqichida ular haqida ma'lumot berishadi. O'quvchilarga xalq qo'shiqlari qadimdan yashab kelayotganligi, ularning ildizlari

uzoq o'tmishga borib taqalishi, hozirgi vaqtda ham mavjud bo'lgan ayrim qoshiqlarning yoshi juda ham ulug' ekanligi aytiladi. Ularning hozirgacha yashab kelayotganligining sababi esa ularda xalqning dardi, o'y-u hasratlari va yashash tarzining kuylanganligini aytib o'tish zarur. Eng asosiysi, qo'shiqda kuylangan muammolar, kechinmalarning hozirda ham mavjud ekanligi bu qo'shiqlarning ko'p umr ko'rishiga sababchi bo'lgan. Shu jumladan, ular o'tmishning shart-sharoitlarini o'rgatish uchun asqotadigan katta tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ana shunday ma'lumotlarni ham o'quvchilarga uqtirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2) O'quvchilarni qo'shiqni o'qishga tayyorlash.

Qo'shiqni o'qishga tayyorlash uchun qo'shiq mavzusi yuzasidan suhbat olib boriladi. Qo'shiqda ifodalangan mavzu yuzasidan o'quvchilarning fikrlari so'raladi. Bu ishni amalga oshirish uchun oqituvchi qo'shiq bilan avvaldan tanish bo'lgan bo'lishi kerak.

3) Qo'shiqni she'r tarzida ifodali o'qish.

Qo'shiq haqida dastlabki tasavvurlar hosil qilingach, she'r tarzida ifodali o'qiladi. Bundan asosiy maqsad esa qo'shiqlar dastlab she'r holida bo'lganligini tasavvur qildirishdan iborat.

4) She'rni musiqaga solib qo'shiqqa aylantirish. She'r ifodali o'qilgach, o'qituvchi uni musiqa ohangiga solib, qo'shiqqa aylantirib beradi. So'ngra o'quvchilar baravariga qo'shiqqa soladilar. Shu tarzda kuylansa, qo'shiq bir tekis va chiroyli chiqadi.

5) Qo'shiq matni haqida dastlabki suhbat.

Qo'shiqda anglashiladigan ma'no va mazmun haqida dastlabki suhbat olib boriladi. O'quvchilardan she'r ularga qanday ta'sir ko'rsatganligi haqida suhbat olib boriladi.

6) Qo'shiq matnini izohli o'qish va badiiy til vositalarini izohlash.

Qo'shiq matnida o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan so'zlar tushuntiriladi. Ularning ma'nosini belgilashda ikkilanadigan so'zlarning ma'nosiga ham aniqlik kiritiladi.

7) Qo'shiqning g'oyaviy mazmuni haqida.

Qo'shiqda nima deyilayotganligi, ya'ni uning g'oyaviy mazmuni haqida suhbat olib boriladi. Suhbat o'qituvchining savollari va ularga berilgan o'quvchilarning javoblaridan hamda o'quvchilarning bilmagan, ular so'ragan savollariga o'qituvchining javoblari, to'ldirishlaridan iborat bo'ladi. Shunday qilinsa, o'quvchilar doimo o'zlari xirgoyi qilayotgan qo'shiq mazmuniga e'tiborli bo'la boshlaydilar. Ko'pincha kichik yoshdagi bolalar o'zlari tushunmaydigan qo'shiqlarni xirgoyi qilib yuradilar. Ular agar qo'shiq mazmunini tushunishsa, qo'shiqni yodlash oson bo'lishligini bilishlari lozim. O'quvchilarning tushunmagan holatda gapirishi va kuylashlariga nuqta qo'yilmog'i lozim. Ana shunda ular har bir narsadan mazmun qidirishni o'rganadilar. Demak, qo'shiqning g'oyaviy mazmuni ustida suhbat olib borishlik bilan bir qator yaxshi natijalarga erishish mumkin.

8) Xalq qo'shiqlarini alohida-alohida kuylatish.

Qo'shiqlarni o'quvchilarga alohida-alohida kuylatish maqsadga muvofiq, chunki o'quvchi kuylashni yoqtiradi va yaxshi kuylashga harakat qiladi. Ularning qo'shiqqa bo'lgan etiborlari oshadi. O'quvchilar yakka holda kuylaganda, ularning yutuq va kamchiliklari bilinadi, ularning yutuqlari namuna tarzida olinadi, kamchiliklar esa yo'qotiladi, to'g'rilanadi.

3.3. Sinf dan tashqari o'qish mashg'ulotlarida xalq maqollari ustida ishlash

Maqollar xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan janr bo'lib, ular turmush tarzimizda, hayotimizda keng qo'llaniladi. Maqollar xalq donishmandligining muhim ko'rinishidir. Undan insonlarning turmush tajribalari, boshidan o'tkazgan nima qilish yoki qilmaslikka chiqargan qarorlari, xulosalari o'rin olgan.

Maqollarning hajmi juda ham kichik bo'ladi, ammo undan chiqariladigan xulosaning hajmi unga qarama-qarshi ravishda juda ham katta bo'ladi. Maqollarda hajmning kichikligiga va xulosaning kattaligiga e'tibor beriladi. Bitta yaxshi bir maqol keng yoritiladigan bo'lsa, katta bir asar yoritilishi mumkin bo'ladi. Maqollar didaktik mazmundagi janr bo'lganligi sababli bolalar uchun, ularning tarbiyasini yaxshilash borasida muhim o'rin tutadi. Shu sababli boshlang'ich sinf darsliklarida maqollar keragicha berib o'tilgan. Darsliklarga e'tibor beradigan bo'lsak, maqollarni biror ertak, she'r yoki matndan so'ng berilganini ko'ramiz. U matndan kelgan mazmuni izohlab keladi va so'nggi xulosani chiqarishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda maqollar ustida ishlashni quydagicha amalga oshirish mumkin:

1) Maqollar haqida ma'lumot berish.

O'quvchilarga yuqorida aytib o'tilgan maqol haqidagi fikrlar sodda, ravon, tushunarli tarzda bayon qilinadi.

2) Maqolni o'qish.

Maqol mazmuniga mos ravishda o'qiladi.

U o'qilganda har bir sozi tushunarli bo'lishi kerak.

3) Maqol mazmunini tahlil qilish.

O'quvchilarda maqol orqali nimani tushunganliklari, u orqali nima demoqchi bo'lganligi so'raladi. O'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Albatta, ularning fikrlari mukammal bo'lmaydi. Shu sababli o'qituvchi fikrlar aytib bo'lingach, o'zi ham aytilgan fikrlarni to'ldiradi. Kimning fikri javobga yaqin ekanligi aytiladi.

4) O'quvchilardan shu mazmundagi yana qanday maqol bilishlarini so'rash.

Bu orqali o'quvchilarning maqollarni qay darajada bilishliklari aniqlanadi. Maqol aytish musobaqa tarzida o'tkazilishi ham mumkin. Musobaqada faol qatnasha olmagan o'quvchilar ko'proq maqol o'qishga va yodlashga harakat qiladilar. Biroq mavzu olinib kim ko'p maqol aytish musobaqalari tez-tez o'tkazilishi lozim.

Maqollarni o'rgatishdan asosiy maqsad o'quvchilarni yuksak axloqiy ruhda tarbiyalashdan iborat. Maqollar tajribadan o'tgan, ma'lum tarbiyaga chorlovchi so'zlardan iborat bo'lganligi sababli, ularni faqat o'qibgina qolmay, ularga amal qilish kerakligini tushuntirish

lozim. Chunki maqollarga amal qilgan insonlar hayotda kam adashadi. Maqollarni o'rgatish bolalarga doimo to'g'ri yo'lga yurishni ta'minlashidan iborat maqsadni ham ko'zda tutadi.

4-§. Sifdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini teatrlashtirilgan holda tashkil qilish

Respublikamizning barcha viloyatlarida qo'g'irchoq teatri bo'lib, bu qo'g'irchoq teatrlarining repertuarlaridan maktab yoshidagi bolalar uchun spektakllar o'rin olgan. Qo'g'irchoq teatri jamoasi maktablarda tez-tez spektakl namoyish etib turishadi.

O'yinchoqlar spektaklini quyidagi ertaklar asosida tayyorlash mumkin: o'zbek xalq ertaklaridan "Qizg'anchiq it", "Fil bilan xo'roz", "Bo'ri bilan echki", rus xalq ertaklaridan "Sholg'om", L.N.Tolstoyning "Ikki o'rtoq", "Uch ayiq", o'zbek xalq dostonlaridan "Alpomish", "Go'ro'g'li", yana o'zbek xalq ertaklaridan "Egri bilan to'g'ri", "Sahiy va Baxil" A.Avloniyning "Xo'roz ila bo'ri", Sh. Perroning "Qizil qalpoqcha" va hokazolar.

Ertaklarni inseniroykalash yoki ashulalar aytish o'qituvchidan oldindan tayyorgarlik ko'rishni talab etadi.

Bu tayyorgarlik quyidagilardan iborat:

- asar matnini ifodali aytib berish ustida ishlash;
- o'yinchoqlarni hamda sahna bezaklarini tanlash;
- o'yinchoqlar spektaklini mashq qilish.

O'yinchoqlar teatri uchun oddiy bolalar stoli sahna bo'lib xizmat qiladi. Unga voqealar rivojiga ko'ra zarur bo'lgan bezaklar qo'yiladi. Spektakl uchun yaxshi holatdagi (hatto yangi) o'yinchoqlar tanlanadi. O'qituvchi o'yinchoqlar spektaklini boshlashdan oldin o'z stulining ikki yoniga stulcha qo'yadi. Bitta stulchaga hali spektaklga qatnashmagan o'yinchoqlarni, ikkinchisiga esa qatnashgan o'yinchoqlarni qo'yadi. O'qituvchi stulga o'tirgan holda, ertakni hkoya qiladi va ertakdagi hikoyaning borishiga qarab, o'yinchoqni stol bo'ylab harakatlantiradi.

Spektaklni namoyish qilib bo'lgach, stol ustidagi barcha qatnashuvchilarni bolalar ixtiyoriga qo'yadi. Ular bir necha kun tarbiyachiga taqlid qilgan holda bu o'yinchoqlar bilan o'ynaydilar. Bunday qo'g'irchoq teatrlarini o'yin vaqtida hamda kechki soatlarda namoyish etish mumkin.

Soya (ko'lanka) teatri bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Soya teatri ertaklarni inseniroykalashning keng tarqalgan turi. Soya teatrlarini namoyish etish ertak yoki hikoyani, masalni o'qish bilan bir vaqtda namoyish etiladi. Soya teatri o'zining bir qancha xususiyatlariga ega. Soya tetatrida "Tulki va Turna", "Bo'g'irsoq" kabilarni namoyish etish mumkin. Soya teatri imkoniyatlarini kengaytirish uchun bir personajning bir nechta siluetlari (ko'rinishlari) tayyorlanadi.

Soya teatrini namoyish etish uchun birinchi kunlarda uchta o'qituvchi ishtirok etadi: bittasi "ekran" oldida o'tirib matnni o'qiydi, ikkitasi "ekran" orqasida turib siluetslarni boshqaradi. Spektaklni ko'rasatishning bir necha variantlari bor. Asarning hammasini o'qish mumkin yoki muallif matnini o'qish bilan chegaralanish mumkin. Personajlar so'zini esa "ekran" orqasida turgan o'qituvchilar aytib turishadi.

O'qituvchilar siluetslarni boshqarish malakasini egallab olishgach, bitta o'qituvchining o'zi (o'quvchilarni yordamchi qilib) spektaklni ko'rsatish mumkin. O'qituvchi bir necha personaj uchun matnni o'qishga to'g'ri keladi. Shuning uchun har qaysi personajning ovozini bolalarga yetkaza olish ustida mashq qilish kerak.

Ko'lanka teatri uchun ekran va siluetslar tayyorlanadi. Ekraning (soya teatrining sahnasi, taxta rom) eni bir metr, bo'yi 60 *sm*, patki taxtasi (oyog'i 10 *sm*) bo'lib, unga yupqa oq mato tortiladi. Yupqa kartondan siluetslar yasaladi va har ikkala tomoni qora rangga (tush bilan) bo'yaladi. Siluetslarning patiga qo'l bilan ushlab uchun taglik yasaladi. Soya teatrini namoyish etishda avval xona qorong'u qilinadi. Ekraning orqasiga bir metr naridan yorug'lik (stol lampasi yordamida) beriladi. Namoyish etilgan siluetslar to'liq ko'rinishi, ammo taglik bilan tarbiyachining qo'li ko'rinmasligi kerak.

Diafilm va diopozitivlar – oynada yoki klyonkada ko'rsatiladigan kitobiy suratdir. Diafilm ko'rsatish bolalarga ekranlashtirilgan asar voqeasini yaxshiroq eslab qolish imkonini beradi. O'qituvchi diafilm ko'rsatishga tayyorlanish paytida undan foydalanish maqsadini aniqlashi lozim. Diafilmdan bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'atini boyitish uchun, nutqini o'stirishda, ko'ngil ochishi va boshqa masadlarda foydalanish mumkin.

Hamma diafilmlar qiziqarli va bolalarga tushinarli bo'lishi, ularda tanish narsalar notanish narsalar bilan birgalikda namoyish qilinishi lozim. Diafilmda yangi material qanchalik ko'p bo'lsa, seans shunchalik qisqa bo'ladi. Bir seansda mazmunan bir-biriga yaqin kichikroq ikkita diafilmdan ko'rsatish mumkin. Agar seans uzoq davom etadigan bo'lsa, bolalar toliqib qoladilar.

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va ularning lug'atini boyitish uchun diafilmlarning matnini aytib turib namoyish qilish va takror ko'rsatish usullaridan foydalanish mumkin.

Diafilm ko'rsatishdan oldin bolalar ekranlashtirilgan she'rni yoki mazmunan diafilmga yaqin she'rni yod olishlari mumkin. Bunday oldindan tanishtirish bolalarning diafilmdagi muhim narsalarnigina emas, balki ikir-chikirlarini ham aniqroq ko'rishlariga yordam beradi.

O'qituvchi diafilmdan bolalarga namoyish etishdan oldin o'zi ko'radi. Matnni ifodali o'qishni o'rganadi, qaysi kadrlarni bolalarga batafsil ko'rsatishni aniqlab oladi. Seans davomida ko'p savollar berish, ezmalik qilish yaramaydi. Bunday qilish badiiy taassuroyni buzadi. Diafilmdan birinchi ko'rsatishdan bir-ikki hafta o'tgandan keyin, ya'ni bolalarning birinchi ko'rganlaridan olgan taassurotlari ravshanlashib qolganidan so'ng takror ko'rsatiladi. Shunda

bolalar diafilm mazmunini chuqurroq tushinishlari mumkin. Diafilmning mazmuni qanchalik murakkab bo'lsa, navbatdagi ko'rsatuv shunchalik uzaytirilishi kerak.

Bolalarning monologik nutqini o'stirishda ularning hikoya qilib brishlari bilan qo'shib olib boriluvchi diafilm ko'rsatish usulidan foydalaniladi. Birinchi bor ko'rsatishda tarbiyachi matnni ifodali qilib o'qiydi, takror ko'rsatishda bolalarning o'zlari ekranda tanish kadrlar paydo bo'lishi bilan hikoya qilib turadilar.

O'qituvchi diafilm ko'rsatishdan oldin bolalarga muqaddima so'zi bilan murojaat qiladi va diafilmni ko'rib bo'lgach, hikoya tuzishni taklif qiladi. Keyin diafilm matnini o'qimasdan ko'rsatiladi. Diafilm tugashi bilan o'qituvchi uni yana ko'rsatadi, bolalar uni takror ko'radilar va kadrlarga qarab eslab qolganlari asosida hikoya tuzadilar.

Diafilm ko'rib bo'lingandan so'ng suhbat o'tkazish mumkin. Bu suhbatda bolalar diafilm mazmunini hikoya qilib berishda rasm chizish va loy, plastilindan turli narsalar yasash, dramalashtirilgan o'yinlardan foydalanishlari mumkin.

Masalan, "Ertaklar — yaxshilikka yetaklar" mavzusidagi bayram senariysi:

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, qadrlı bolajonlar. Bugingi bayramimizga ertak qahramonlari tashrif buyirishgan, kelinglar, bizlarga o'zlarini tanishtirsinlar.

Olmaxon: Biz do'stlarim — quyon, ayiqpolvon va asalari bir kuni bizlarni ertalab kim uyg'otishi haqida bahslashib qoldik. Hammamiz o'zimiz bilganicha javob topdik. Lekin baribir bu holning qanday sodir bo'lishini bilolmadik.

Sigir: Biz "Nima totli?" ertagi qahramonlarimiz. Bizlar ham taomlar haqida uzoq bahslashdik. Men ham o'zim uchun totli taom ko'k pichan ekanini aytdim. Qo'y esa ko'm-ko'k barra o't dedi. Ot esa arpa, deb javob berdi. Mushukvoy eng totlisi sut, go'sht dedi. Shunday qilib, barchamiz o'zimiz uchun eng mazali taomni aytdik.

Ayiqpolvon: Badaxshon o'rmonida yashayman. Do'stlarimga doim o'zimni "polvon" deb aytaman. Kunlardan bir kuni do'stlarimni mehmon qilmoqchi bo'ldim, do'stlarim juda sevindilar. Ularni og'zini ochmoqchi edim. Do'stlarim meni uzoq kutganidan so'ng, yuzlarim shishgan ahvolda kirib keldim. Ular buning sababini so'raganda, qishloqni bo'ridan qutqardim dedim. Lekin yolg'onim darrov oshkor bo'ldi. Ari to'dasi meni talaganidan ular voqeani bilib olishdi. Arilardan qutilgach, do'stlarimdan uzr so'ragani yugurdim.

O'quvchi: Men ularni tanidim, ular "Asalari bilan pashsha". Asalari bahor kelgach, sevingancha sharbat yig'ishga kirishadi. Pashsha tumshayib qovog'ini solib:

— Atrof orasta men esa ochman, yegani narsa yo'q.

U asalarini hafa qilmoqchi bo'libdi. Pashsha asalariga "kel, gapim bor", - debdi. Lekin asalari "ishim ko'p", - debdi. Pashsha esa aslarining sharbatini ataylab to'kib yuboribdi. Asalari indamay, yana sharbat yig'ishga ketibdi. Pashsha och, madorsiz qolib ketaveribdi.

O'qituvchi: Barakalla, bolajonlar, endi bu qahramonni tanidingizmi? Kelinglar, u o'zini tanitsin. Marhamat, "Ko'ngilchan o'tinchi".

O'tinchi: O'rmondan o'tin uchun daraxt kesishga shaylanganimda, daraxt tilga kirdi. U uni kesmasligimni o'tindi. Emanni kesmoqchi bo'lganimda, u ham zorlandi. Shunday qilib, hamma daraxtlarni kesmadim. Birdan o'rmon ichidan chol chiqdi. Men unga salom berdim. U esa daraxtlarni kesmaganim uchun tillo hipchin berdi. Hipchinni silkitsam, istaganim muhayyo bo'lardi. Men shundan so'ng baxtli yashay boshladim.

O'quvchi: Ha, ustoz, men uni tanidim. U "Uzun terak qahramoni", bir kuni terak baland o'sganini ko'z-ko'z qilibdi. Hoy daraxtlar, buncha sekin o'sasizlar, men kichikligimda ham shunchalik edilaring, hali ham o'shandaysizlar, - debdi. Terak naynov bo'lib o'sgan sari maqtanaeribdi. Kunlardan bir kun qattiq shamol kuchayib, bo'ronga aylanibdi. Daraxtlarning shoxlari bir-biriga urilibdi. Terak esa tebrana-tebrana sinib ketibdi. Terak ingrab yerga yiqilibdi. Boshqa daraxtlar unga yordam beribdi. Terak qilgan ishlaridan uyaliq, do'stlariga qaytib ularni xafa qilmasligini aytibdi.

Baliqcha: Men "O'jar baliqcha" qahramoni bo'laman. Katta moviy dengizda aka-opalarim bilan mazza qilib suzib yurardik. Bir kuni zerikdim. Aka-opalarimga injiqlik qildim. Ularni gapiga quloq solmay suzib ketdim. Oqibatda, dengiz chirmog'iga ilashdim. Yordam so'radim, ammo ota-onam uzoqda bo'lgani uchun eshitmadilar. Katta baliqlar meni yemoqchi edi. Birdan onam va akalarim kelib meni qutqardilar. Shundan so'ng ularning aytganini qiladigan, o'jarlik qilmaydigan bo'ldim.

O'quvchi: Axir bu "Dono dehqonbobo" ertagidan-ku. Men bu ertakni bilaman. Dehqonboboning bir tanob yeri bo'lib, qishin-yozin ishlar ekan. Uning hosili doimo mo'l bo'larkan. Bir kuni podshoh dehqonboboning ta'rifini eshitibdi. Navkarlari boboni saroyga keltiribdi. Shoh dehqonbobodan "nima barakali", - deb so'rabdi. "Shohim, dunyoda barakali narsa oddiy urug' ", - debdi. Urug'ning tavsifini aytibdi. Shoh dono dehqonning javobiga qoyil qolib, xazinabondan o'n tillo berishini aytibdi. Shunda dehqonbobo shohdan bir g'alvir urug'lik bug'doy so'rabdi. Bu gapni eshitgan shoh dehqonboboning asl dehqonga xos fazilatiga yana qoyil qolibdi, ularga bir g'alvir bug'doy va o'n tillo mukofot beribdi .

Mana yana shunday adabiy ertaklar bilan dars o'tish usulini ko'rib chiqaylik:

Mavzu: Ertaklar mamlakatida Ko'zacha bilan tulki.

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga ertaklar orqali milliy g'oyani singdirish. Xalq og'zaki ijodining ahamiyatini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarda ertak qahramonlarining ijodiy sifatlarini shakllantirish, yaxshilik va halollikka muhabbat, yomonlik va yolg'onchilikka nisbatan nafrat tuyg'ularini uyg'otish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilar ongiga milliy g'oyaga e'tiqod tuyg'ularini rivojlantirish, va milliy g'ururni takomillashtirish.

Dars turi: Ijodiy sahna va integral.

Dars jihozi: Ertak qahramonlarining rasmlari, ko'rgazmalar, magnit disk, magnitafon.

Dars usuli: Og'zaki savol-javob, ko'rgazmalilik.

Darsning borishi: Tashkiliy qism, o'quvchilarni darsga tayyorlash, navbatchi axboroti.

Ma'naviy daqiqa: Aziz bolajonlar, bugungi darsimizni ma'naviy daqiqa bilan boshlasak. "Jannat onalar oyog'i ostidadir". Har bir inson tug'ilib voyaga yetar ekan, go'daklikda ona allasini tinglab ulg'ayadi. Kelinglar, chaqaloqlikda qulog'imizga yoqimli bo'lgan ona allasini tinglasak.

Alla – xalq og'zaki ijodidir. Xalq og'zaki ijodi juda katta janrdir. Bunda dostonlar, afsonalar, ertaklar, topishmoq va maqollar mujassamdir.

Aziz bolajonlar, bugungi o'qish darsimizni ertaklar olamiga sayohat qilishga bag'ishlaymiz. Biz avvalgi darsimizda bir qancha o'zbek xalq ertaklari bilan tanishgandik. Bugungi darsimiz sermazmun va qiziqarli o'tishida sizlar ham o'z hissalaringizni qo'shib borasizlar. Tayyormisiz, bolajonlar?!

Bolalar, mana bizlar ertaklar mamlakati darvozasining oldida turibmiz. Bu yerga kirishimiz bir oz qiyinroq. Bu shaharga hokim ham kerak ekan. Buning uchun quyidagi "Sirli olmalar daraxti" foydalanamiz. Bundagi olmalar ortiga savollar yashirilgan. Savollarga to'liq va to'g'ri javob bergan o'quvchi bu shaharning hokimi bo'lar ekan.

Savol: Ertak nima?

Savolga javob bergan o'quvchi hokim bo'ladi va ular yo'lda davom etadi.

Aziz bolajonlar, mana bu shaharchamiz – "Halollik". Qani, kim shu shaharchani aylanishni istaydi. O'quvchilar olmani uzadi va savolga javob beradi.

1. Qanday o'zbek xalq ertaklarini bilasiz?
2. Halollik haqida maqol ayting.
3. Halollikni ulug'lagan ertak qahramonlarini ayting.

1-o'quvchi – Xalq og'zaki ijodida ertaklar ko'p. Biroq bular orasida "Halollik" nomli ertak o'zining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Unda bir dehqonning o'z oshnasiga yerining bir chekkasini sotgani oshnasi esa o'sha yerdan bir xum tilla topib olib, dehqonga keltirgani, dehqon esa yerni men senga sotganman, demak, tillalar ham seniki deb olmagan, halol mehnat bilan kun ko'rishi haqida hikoya qilinadi.

Halollik haqida maqollar.

Halol boylik qilar sheryurak,

Og'rilik mol aylar jonsarak.

Bolajonlar, keyingi shaharchamiz – “Vatanparvarlik”. Qani, bu shaharchaga kirish uchun “Sirli olmalar daraxti”dagi savollarga javob beraylik.

- Vatan nima?
- Vatan haqida she’r aytib bering.
- O’quvchi: Vatan bu biz tug’ilgan tuproq.
- O’quvchi: Vatan bu biz yashayotgan makon.
- O’quvchi:

Ko’p yillar sen uchun she’rlar bitganmiz,

Shu aziz kunlarni orzu etganmiz.

Millat ona bo’lsa, sen g’uncha bo’son.

Kelajagi buyuk, hur O’zbekiston!

Mana, bolajonlar, biz so’nggi Ertaklar mamlakatining so’nggi shaharchasiga ham yetib keldik. Sirli olmalarning sirli savollariga javob berishga tayyormisiz?

1. Mehnatsevar deganda qanday kishilarni tushunasiz?

2. Mehnat haqida maqollar ayting.

1- O’quvchi: Mehnatsevar o’zi, oilasi, xalqi uchun chin yurakdan, tinmay ish va izlanishda bo’lgan insondir. “Zumrad va Qimmat”, “Uch og’a-ini botirlar” “Chumoli va tipratikan” ertaklari shular jumlasidandir.

2- O’quvchi: Tekinning minnati ko’p,
 Mehnatning ziynati ko’p.

Daraxt yaprog’i bilan ko’rkam,

Odam-mehnat bilan

Mehnat-baxt keltirar.

Mana, bolajonlar, har biringiz tanishib chiqqan ertaklar shaharchasidagi “Halollik”, “Vatanparvarlik”, “Mehnatsevarlik” fazilatlarini o’zingizda namoyon qilishga intiling. Bunday xislatlar sizlarga albatta omad, baxt keltiradi.

Bolajonlar, biz sizlar bilan yaxshi fazilatlar haqida gaplashdik. Yomon xislatlar yolg’onchilik, chqimchilik, dangasalik haqida ham gaplashsak-da, bunday xislatlarga ega bo’lish oxir-oqibatda qanday ko’rguliklar boshga tushishini “Ko’zacha va tulki” ertagini tomosha qilganda bilamiz.

Ertak namoyish qilinadi.

Mana, bolajonlar, ertakni ham tomosha qildik.

Mustahkamlash: O’quvchilar ertakni navbat bilan o’qiydilar. Savollarga javob beradilar.

Lug'at bilan ishlash.

Darsga yakun yasash.

O'quvchilarni baholash.

Uyga vazifa berish.

Boshlang'ich sinfda bolalar faqatgina tinglovchi bo'libgina qolmay, balki tomoshabinlardir. Maktabda badiiy asarlarni sahnalashtirishning bir necha turlari mavjud. Bularga qo'g'irchoq teatri, soya (ko'lanka) teatri, stol teatri, barmoq teatri, diafilmlar kiradi. Bolalar qo'g'irchoq yoki soya teatrining spektaklini tomosha qilishni yaxshi ko'radilar. Bu tomoshalar bolalar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Sahnalashtirilgan asarlar bolalarning estetik tasavvurini boyitadi, chunki spektaklda san'atning bir necha turlari: badiiy so'z, tasviriy san'at (bezak, qo'g'irchoqlar yoki syujetlar), sahna san'ati, musiqa kabilar birlashgan bo'ladi. Spektaklning bolalarni o'ziga jalb qilib olishining sababi, unda ishtirok etuvchi qo'g'irchoqlar jonlanadi, to'siq orasida yoki ekranda bo'layotgan voqelarni haqiqiy deb biladilar. Sevimli qahramonlari bilan voqealar sodir bo'lishi haqida qayg'uradilar, qahramon og'ir ahvolga tushib qolganda, yordam berishga harakat qiladilar. Ko'rgan spektakllarni bir-biriga gapirib beradilar. Buning natijasida, ularning nutqi rivojlanib boradi.

Xulosa

Men bitiruv malakaviy ishim mavzusini yoritish jarayonida quyidagi xulosalarga keldim:

- Sinfdan tashqari o'qish sinfdan o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi.
- Sinfdan o'qish sinfdan tashqari o'qish uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'qigan asarni tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi.
- Sinfdan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli, o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi.
- Sinfdan o'qish – o'quvchini hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.
- Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslari hisoblanadi.
- Sinfdan tashqari o'qish darsining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, sinfdan o'qish darslaridan keskin farq qiladi.
- Sinfdan tashqari o'qish darslari erkin darslar hisoblanadi. Bunday maxsus darslarda bolalarning kitobga qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodi rivojlanadi, faol kitobxonlar uchun zarur ko'nikma va malakalar shakllanadi.
- Sinfdan tashqari o'qish darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.
- Har bir sinfdan tashqari o'qish darsida o'quvchilar hikoya, ertak, she'r o'qiydilar, hajmi kichik asarni yaxlit tarzda, hajmi katta asar bo'lsa, ikki-uch soatlik dars davomida o'qiydilar. Bundan tashqari, darsda ichdan o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.
- Har bir darsda ma'lum bir yangi kitobxonlik ko'nikmasi hosil qilinadi.
- Sinfdan tashqari o'qish darslarida qayta hikoyalash, lug'at ishi, suhbat usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.
- Sinfdan tashqari o'qish darslarida qayta hikoya qilishning qisqartirib qayta hikoyalash, o'quvchiga yoqqan o'rinni qayta hikoyalash, tanlab qayta hikoyalash turlaridan foydalaniladi.
- Sinfdan tashqari o'qish qayta hikoya qilishning ijodiy shakllari bo'lgan o'qilganlarga so'z bilan yoki grafik rasm chizish, applikasiya, adabiy-musiqaviy kompozitsiya, rasmi dafilmlardan foydalanishga sharoit yaratadi. O'qilganlar asosida insho, gazetaga maqola yozish kabi ijodiy ishlardan foydalanish mumkin.
- Sinfdan tashqari o'qish darslarida suhbat usullaridan o'qilgan kitobni muhokama qilishda ham, yangi kitob tavsiya qilishda ham qo'llanadi.

- Boshqa darslardagi kabi, bunday darslarda ham kirish suhbat, umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbatlar bo'ladi. Ko'pgina sinfdan tashqari o'qish darslari umumlashtiruvchi darslar kabi o'tkaziladi. Bunday darslarning qurilishida umumlashtirish elementlari bo'ladi.

- Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda kitob o'qishda mustaqillikni tarbiyalash hisoblanadi.

- Sinfdan tashqari o'qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o'rin beriladi. Bunday darslarda adabiy viktorina, eng yaxshi insholar, topishmoqlar topish, tanlovlar uyushtirish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoa bo'lib yoki yakka tartibda ertaklar to'qib aytish, o'quvchilar hayoti haqida, yozuvchilarning chuqur ma'noli gaplari va maqollar, latifalar aytish mumkin. Ba'zan o'qituvchilar bunday darslarda "Hazil daqiqasi", "5 minut o'ylash uchun", "Topishmoqlarni top", "Bilimdonlar klubi", ayniqsa, 2000-yildan beri eng keng tarqalgan teleo'yin "Zakovat"ga o'xshash o'yinlarni o'tkazib turadilar.

- Sinfdan tashqari o'qish darslarini o'tkazish rejasini o'quv yilining yarmi yoki butun o'quv yili uchun tuzib, darslar sistemasini belgilab olish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent."Sharq", 1999.
2. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. "Tafakkur" jurnali, 1998-yil, 2-son.
3. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent. "O'zbekiston", 2000.
4. Karimov I. A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. "Xalq so'zi" gazetasi, 2009 -yil, 6 -dekabr soni.
5. Rahmonov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2004.
6. G'ulomov A., Qobulova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Toshkent. "O'qituvchi", 1989
7. G'ulomov A.K. Ona tilidan o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish. Toshkent."O'qituvchi", 1989.
8. Nurullaeva Sh. Ona tilidan mustaqil ishlar. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2006- yil, 2-son.
9. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1985
10. Yoqubjonova O. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar. Toshkent."O'qituvchi", 1984.
11. Yunusov Q. Ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. Andijon, 2004.
12. Yusupova Sh.,Turg'unova N. O'quvchi faolligi haqida."Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2003- yil, 5-son.
13. Jumayeva M. Biz bir tanmiz, sobitqadammiz. Toshkent. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2010-yil, 9-son, 12 – 13-betlar.
14. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali. Toshkent. "Sharq", 1999- yil, 7- maxsus son.